جديد

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

2026-yil 31-iyul
№ 31 (135)
www.jadid.uz

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

MILLAT FIDOYILARI

HISOBCHIGA HISOBSIZ JAZO

Mamarasul Rasulov 1900-yili Andijon tumani Mirobod qishlog‘ida, oddiy dehqon oilasida tug‘ilgan. 1914-1915-yillarda qishloqdagi jadid maktabida Muhammadjon Rahimovdan dastlabki ta’limni oladi. 1918-1919-yillarda Toshkentdagi o‘qituvchilar tayyorlash maktabida o‘qiydi. O‘qishni tamomlagandan keyin Andijonga qaytadi-yu, kutilmaganda Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi tomonidan “bosmachilik” harakatiga xayrixohlikda ayblanib, qamoqqa olinadi. Ayblovlar tasdig‘ini topmagach, bir oydan so‘ng ozod qilinadi.

(Davomi 7-sahifada).

YETTIKUNLIK

MINTAQAVIY INTEGRATSIYA, YANGI TOSHKENT MODERNIZMI

O‘tayotgan haftada O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosiy hayotida qator muhim voqealar yuz berdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning faol ish jadvali, uning energetikadan tortib bunyodkorlikkacha, mintaqaviy hamkorlikdan global madaniy e’tirofgacha bo‘lgan keng qamrovli faoliyati mamlakatning izchil taraqqiyot yo‘li chizgilarini namoyon qiladi.



ENERGETIKA SOHASIDAGI STRATEGIK VAZIFALAR

Xalqimizda chiroq nafaqat yorug‘lik timsoli, balki hayot bardavomligi, an’ana boqiyligi, xonadon va oila tinchligi kabi o‘nlab tamsilga ega ramz hisoblanadi. O‘zimizdan orttirib, yondosh davlatlarga elektr energiyasi yetkazib berish zamirida ham murosai madoradan ko‘ra mehr-oqibat, hurmat-ehtirom tuyg‘ulari ustuvor. Bugun energetika yorug‘lik va issiqlik qamrovidan chiqib, iqtisodiy hamda ijtimoiy taraqqiyot vositasiga aylandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida yoqilg‘i-energetika tarmog‘ining bugungi holati, mavjud muammolar va istiqboldagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi uchun o‘ta muhim ahamiyat kasb etdi. Negaki, energetika – iqtisodiyotning barqarorligi, sanoat va tadbirkorlik rivoji, aholi farovonligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan strategik tarmoqdir. Yig‘ilishda ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda sohaga katta hajmda investitsiyalar jalb qilindi, yangi elektr ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi, elektr va gaz tarmoqlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha salmoqli ishlar bajarildi. Xususiy sektor va xorijiy investorlar ishtirokini kengaytirish uchun zarur huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratildi.

Davlatimiz rahbari tizimda hamon uchrayotgan kamchiliklarni chuqur tahlil qilib, muammolarning asosiy sabablarini ko‘rsatib berdi.

Energetika sohasidagi asosiy masala mablag‘ yetishmovchiligi bilan emas, balki boshqaruv sifati, ijro intizomi, rahbarlarning mas’uliyati va natijadorlikka yondashuvi bilan bog‘liq. Bu esa barchadan yangicha fikrlash, aniq hisob-kitob asosida ishlash, aholi va tadbirkorlar manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yishni talab etadi. Yig‘ilish energetika sektorida tizimli o‘zgarishlarning davom etishidan dalolat beradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, hududlarning jadal rivojlanishi, aholi sonining tabiiy ortib borishi va iqtisodiy faollikning misli ko‘rilmagan darajada jonlanishi mamlakatning energetika infratuzilmasiga bo‘lgan talabini keskin oshirmoqda.

(Davomi 2-sahifada).

ILM YO‘LI



OYDIN KELAJAKNI KO‘ZLAB...

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri, iqtisod fanlari doktori, professor Qo‘ng‘irotboy SHARIPOV bilan suhbat

– Domla, bilamizki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta’lim qamrovini kengaytirish, ta’lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Qolaversa, tizimdagi mavjud salohiyatdan samarali foydalanish, ilm-fanni iqtisodiyot bilan uzviy bog‘lash, ta’lim va tadqiqot integratsiyasini chuqurlashtirish dolzarb vazifa bo‘lib kelayotir. Mana shu o‘zgarishlar samarasini nimalarda ko‘rasiz?

– Keyingi o‘n yildagi o‘zgarishlar ichida eng ko‘p islohot oliy ta’limda bo‘ldi, desak, adashmaymiz. Son va sifat nuqtayi nazaridan tizimda juda ko‘p ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Bu xalqimiz hayotida ham yaqqol ko‘rinmoqda. Avvallari 60 ming abituriyent oliy ta’limga kirish imtihonlaridan o‘tardi, bu jami kollej va litsey bitiruvchilarining 9 foizi edi. Ya’ni, ularning o‘ndan biri o‘qishga kirgan. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning keng qamrovli, ortga qaytmas islohotlari natijasida bugun oliy ta’limda manzara butunlay yangi qiyofa kasb etdi.

Birinchi navbatda ta’lim shakli ko‘paytirildi. Yoshlar faqat kunduzgi yo bir muddat sirtqi bo‘limda o‘qigan bo‘lsa, keyin masofaviy ta’limga ruxsat berildi. Bosqichma-bosqich gibrid va dual ta’limga ruxsat berilmoqda. Bu o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q. Hammasi talabalarning ehtiyoj va taklifidan kelib chiqib belgilanyapti. Natijada maktabni bitirganlarning 44 foizi talabaga aylanyapti.

(Davomi 3-sahifada).

FAKT

✓ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qirg‘iz Respublikasining oliy davlat mukofotlaridan biri – I darajali “Manas” ordeni bilan taqdirlandi.

✓ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Cho‘lponota shahrida Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining norasmiy Maslahat uchrashuvida ishtirok etadi.

✓ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar.

30-IYUL – XALQLAR DO‘STLIGI KUNI



YAGONA VATAN, YAGONA XALQ

Irina TOKAREVA,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati:

– Men Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining a’zosi sifatida Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini muntazam kuzatib boraman. Mazkur qo‘mita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni asosida tashkil etilgan. Davlatimiz rahbarining ushbu qo‘mita faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori ham imzolangan. Ikki tarixiy hujjat qo‘mitani mamlakatimizda umummilliy totuvlik, birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlash, barcha fuqarolarga teng huquq va imkoniyatlar yaratish, ko‘p millatli xalqimizning O‘zbekistonimiz farovonligiga daxldorligini kuchaytirish, xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni rivojlantirishga zamin yaratdi.

Bundan besh yil oldin muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Xalqlar do‘stligi kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonunni imzoladi va shundan buyon mamlakatimizda yagona va ahil oila bo‘lib yashab kelayotgan 130 dan ziyod millat va elatlar vakillari 30-iyulni bayram sifatida keng nishonlab kelmoqda.

(Davomi 2-sahifada).

VATAN MANZUMASI

Eshqobil SHUKUR

QORAQALPOG‘IM

Turkiy ellar ichra sara aymog‘im,
Yaxshi-yomon kunda qosh-u qabog‘im.
Dunyo yaralgandan qiyomat qadar
Xudo yuragimda yoqqan chirog‘im –
Qoraqalpog‘im!

Ming yillik yo‘llarda yo‘ldoshim o‘zing,
Dilim og‘riganda sirdoshim o‘zing.
Boshimda tegirmon aylangan paytlar,
Qoyaday qo‘l cho‘zgan bardoshim o‘zing.

Bejama so‘zlarga tobim yo‘q mening,
Xush ko‘rmam maqtovning puch bezaklarin.
Rost aytsam, surxonlik singillarimning
Qo‘ng‘irotda ko‘rdim egizaklarin.

Oqshomlar ko‘ksimga tuyg‘ular to‘lsa,
Sog‘inchlar palagin yoygan pallada.
Ko‘nglimning teng yarmi Toshkanda bo‘lsa,
Yarmi kezib yurar Ellikqal’ada.

Bovurim, boshingda baxt qushi balqsin,
Ko‘nglimda ko‘p senga mehrim va so‘zim.
Sen menda o‘zingni ko‘rganing kabi
Men ham mudom senda ko‘raman o‘zim.

Inimsan, og‘amsan, suyanch ardog‘im,
Yuragim yo‘ldoshi, qoraqalpog‘im!



MINTAQAVIY INTEGRATSIYA, YANGI TOSHKENT MODERNIZMI

Boshlanishi 1-sahifada.

Zamonaviy sanoat korxonalari, yangi barpo etilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massivlari va tadbirkorlik subyektlarining uzluksiz ishlashi to‘g‘ridan to‘g‘ri barqaror va sifatli energiya ta’minotiga bog‘liqdir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, energetika tizimini shunchaki bugungi ehtiyoj asosida emas, balki kelgusi demografik va iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oldindan prognoz qilgan holda strategik rejalashtirish kun tartibidagi eng dolzarb vazifaga aylandi.

Shu o‘rinda Davlatimiz rahbari belgilab bergan asosiy mezonlarga to‘xtalsak. Aholi va tadbirkorlik subyektlariga elektr va gazni hech qanday uzilishlarsiz, belgilangan texnik parametrlar asosida yetkazib berish, energetika infratuzilmasini har bir tuman va viloyatning iqtisodiy rivojlanish sur’atlariga moslashtirib modernizatsiya qilish, elektr va gaz uzatish tarmoqlaridagi texnik va tijoriy yo‘qotishlarni minimal darajaga tushirish, energiya samaradorligini oshirish shular jumlasidan.

An’anaviy yoqilg‘i manbalariga (gaz, ko‘mir) qaramlikni kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalarini (quyosh va shamol stansiyalari) keng joriy etish izchil davom ettiriladi. O‘zbekistonda quyosh va shamol energetikasi bo‘yicha yirik mega loyihalar amalga oshirilmoqda. Maqsad – energetika balansida “yashil” manbalar ulushini keskin oshirish, gaz resurslarini tejash va qayta ishlash sanoatiga yo‘naltirishdir. Bu bilan bir qatorda sanoat korxonalari va ijtimoiy obyektlarda energiya tejovchi texnologiyalarni o‘rnatish ommalashtirilmoqda.

YANGI TOSHKENT – KELAJAK SHAHRI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Yangi Toshkent shahrida olib borilayotgan qurilish ishlari bilan tanishdi. Bu tashrif poytaxtning yangi qismi nafaqat turar-joy, balki ilm-fan, ta’lim va sport markaziga aylanayotganini yana bir bor ko‘rsatdi.

Davlat rahbariga shaharning keng ko‘lamli maketi va raqamli xaritasi asosida qurilishlarning umumiy borishi, yirik obyektlarning o‘zaro joylashuvi hamda navbatdagi bunyodkorlik rejalari haqida axborot berildi. Transport va muhandislik infratuzilmasini qurilishlar bilan uyg‘un rivojlantirish, yashil hududlar va jamoat makonlarini o‘zaro bog‘lash, Yangi Toshkentni poytaxtning amaldagi hududi bilan uzviy bog‘lash masalalari ko‘rib chiqildi.

Yangi Toshkent qurilishining birinchi bosqichi doirasida bunyod etilayotgan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti kampusida rektorat va ayrim fakultetlar binolarida yakuniy qurilish va pardozlash ishlari olib borilmoqda. Kampus o‘quv binolari, ilmiy laboratoriyalar, axborot-resurs markazi, elektron kutubxona, talabalar turar joylari, sport va madaniyat inshootlarini o‘z ichiga oladi.

Yangi Toshkentning asosiy ilm-fan va ma’rifat maskanlaridan biri sifatida barpo etilayotgan kutubxona binosida qurilish ishlarining 90 foizi bajarilgan va joriy yilda foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. U 30 ming kvadrat metrdan ortiq maydonga ega bo‘lib, bir vaqtning o‘zida 1 ming 420 nafar kitobxonga xizmat ko‘rsata oladi. Unda ko‘zi ojiz fuqarolar uchun maxsus sharoitlar ham yaratiladi.

Ellik gektar maydonda barpo etilayotgan “Yangi O‘zbekiston” universiteti kampusi 10 ming nafar talabaga mo‘ljallangan bo‘lib, ta’lim, ilmiy tadqiqot, innovatsiya va talabalar hayotini yagona muhitda uyg‘unlashtiradi.

55 ming tomoshabinga mo‘ljallangan zamonaviy futbol stadioni qurilishi 2025-yil noyabr oyida boshlangan bo‘lib, hozirda bunyodkorlik ishlarining 65 foizi bajarilgan. Stadion 2027-yilda 20 yoshgacha bo‘lgan futbolchilar o‘rtasidagi jahon chempionatining asosiy arenasi sifatida xizmat qiladi. U FIFAning barcha talablariga muvofiq qurilmoqda va “yashil energiya”, “aqlli boshqaruv” tamoyillariga asoslangan. Bunyodkorlik ishlarining bunday jadal sur’atlarda olib borilishi Yangi Toshkentni zamonaviy ilm-fan, ta’lim va sport markaziga aylantirishga qaratilgan strategik maqsadlarni aks ettiradi.

SAUDIYA BILAN TIBBIYOT SOHASIDAGI HAMKORLIK

28-iyul kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni Podshohligi sog‘liqni saqlash vaziri Fahad bin Abdulrahmon al-Jalajil boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Uchrashuvda Saudiya Arabistonining yetakchi kompaniyalari rahbarlari ham ishtirok etdi.

So‘nggi yillarda ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikning jadal rivojlanayotgani, ayniqsa, “ACWA” kompaniyasi bilan yirik qo‘shma loyihalar amalga oshirilayotganini alohida qayd etish joiz. Muloqot davomida O‘zbekistonda tibbiyot sohasini raqamlashtirish va modernizatsiya qilish, farmasevtika tarmog‘ini tartibga solish, kadrlar tayyorlash, ko‘p tarmoqli shifoxona barpo etish masalalariga e’tibor qaratildi. Uchrashuv yakunida yangi loyiha hamda tashabbuslarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish va qabul qilishga kelishib olindi. Bu tibbiyot sohasidagi islohotlarning yana bir amaliy qadamidir.

MADANIY MEROS VA JAHON E’TIROFI: YUNESKO RO‘YXATIDAGI TOSHKENT MODERNIZMI

YUNESKO Butunjahon merosi qo‘mitasining Koreya Respublikasi Pusan shahrida bo‘lib o‘tgan 48-sessiyasida O‘zbekiston uchun tarixiy ahamiyatga ega voqea yuz berdi. “Toshkent modernizm me’morchiligi. Markaziy Osiyoda zamonaviylik va an’analar” milliy nominatsiyasi YUNESKO Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritildi. Bu bilan Toshkentning XX asr ikkinchi yarmiga oid 10 ta noyob me’moriy inshooti xalqaro miqyosda e’tirof etildi.



Ro‘yxatga “Marvarid” turar joy binosi, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, “Xalqlar do‘stligi” saroyi, O‘zbekiston davlat san’at muzeyi, Toshkent davlat sirki, O‘zbekiston Badiiy akademiyasining Markaziy ko‘rgazmalar zali, O‘zbekiston Milliy kino san’ati saroyi, “Eski Juva” (Chorsu) bozori, “Kosmonavtlar” metro bekati va “Quyosh” geliokompleksi kabi inshootlar kiritildi.

Prezident Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva ta’kidlaganidek, bu faqatgina bir nechta binoning emas, zilziladan keyingi Toshkentning qayta bunyod etilishi bilan bog‘liq butun bir davrning e’tirofidir.

MINTAQAVIY INTEGRATSIYA YO‘LIDA

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan 29-iyul kuni amaliy tashrif bilan Ostonada bo‘lishi haftaning muhim tashqi siyosiy voqeasi bo‘ldi. Bu tashrif, shubhasiz, ikki davlat o‘rtasidagi ittifoqchilik munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

Davlatimiz rahbari Ostona shahrida “Kelajak o‘yinlari” uchinchi xalqaro musobaqasining tantanali ochilish marosimida ishtirok etdi.

Mazkur o‘yinlar an’anaviy sport turlari va ularning raqamli shakllarini mujassam etgan Fijital (Phygital) konsepsiyasiga asoslangan. 29-iyuldan 9-avgustgacha davom etadigan musobaqada 50 dan ortiq mamlakat, jumladan, O‘zbekiston sportchilari ishtirok etyapti.

Prezidentimizning musobaqaning ochilish marosimida ishtirok etishi zamirida chuqur siyosiy va diplomatik maqsadlar yotadi. Bunday yirik madaniy-sport tadbirlari davlat rahbarlariga rasmiy protokollardan xoli ravishda, erkin va samimiy muhitda ikki tomonlama aloqalarni muhokama qilish imkonini beradi.

Qozog‘iston – O‘zbekistonning eng yirik tashqi savdo hamkorlaridan biri. Ikki tomonlama tovar aylanmasi izchil o‘sib bormoqda va yaqin yillarda uni 5 mlrd. dollardan 10 mlrd. dollargacha yetkazish rejalashtirilgan. Birgalikda qator qo‘shma loyihalar amalga oshirilyapti. Mashinasozlik (avtomobillarni yig‘ish korxonalari), qurilish, farmasevtika va qishloq xo‘jaligi sohalarida yirik investitsiyaviy loyihalar amalga oshirilmoqda. Chegara hududida “Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazi tashkil etilmoqda, bu esa bojsiz savdo va ishlab chiqarishni yangi bosqichga olib chiqadi.

O‘zbekiston va Qozog‘istonning kuchlarni birlashtirishi Markaziy Osiyo mintaqasining iqtisodiy rivojlanishi uchun lokomotiv bo‘ladi. Barcha sohada ijobiy o‘sish kuzatiladi. Va bu xalqlarimiz manfaatlariga to‘la javob beradi. Davlat rahbarlari o‘rtasidagi do‘stona va ishonchli munosabatlar bunday yuksak sheriklikning muhim omili bo‘lishi, shubhasiz.

Sport va raqamli texnologiyalar bayrami fonida kechgan oliy darajadagi siyosiy muloqotlar Markaziy Osiyoda tinchlik, iqtisodiy taraqqiyot va mintaqaviy integratsiyani yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

O‘ZBEKISTON VA QIRG‘IZISTON: ISHONCH VA PRAGMATIZMGA ASOSLANGAN YANGI DAVR

Bugungi kunda O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida mutlaqo yangi – ishonch, strategik yaqinlik, pragmatizm va o‘zaro manfaatlarga asoslangan ikki tomonlama hamkorlik modeli shakllandi. Oliy darajadagi tashrif esa shakllangan ushbu yangi modelni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tashrifning markaziy mavzularidan biri – savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, sanoat, transport-logistika va energetika sohalaridagi amaliy sheriklikni chuqurlashtirishdan iborat. Ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlar shunchaki muloqot darajasida qolmay, aniq global va mintaqaviy ahamiyatga molik mega loyihalar orqali mustahkamlanmoqda.

Masalan, hozirda qurilishi boshlangan “Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston” temir yo‘li koridori mintaqamizning geoiqtisodiy xaritasini tubdan o‘zgartiradi. Bu loyiha Markaziy Osiyo davlatlariga Xitoy va Janubiy Osiyo bozorlariga chiquvchi eng qisqa muqobil tranzit yo‘nalishini taqdim etadi.

“Qambarota-1” GESi loyihasi esa mintaqamizda suv-energetika balansini saqlash, qayta tiklanuvchi “yashil” energiya ishlab chiqarish va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha ikki davlatning hamkorlikdagi eng asosiy flagman loyihasidir.

Hukumatlararo komissiya va Ekspertlar kengashi yig‘ilishlari siyosiy va iqtisodiy kelishuvlarni tahlil qilish va ularni amalga oshirishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish maydonidir. Tashrif kun tartibidan joy olgan O‘zbekiston madaniyati kunlari ikki qardosh xalqning ko‘p asrlik tarixi, tili, dini va qadriyatlari mushtarak ekanini yana bir bor namoyish etadi. Bunday madaniy va ma’rifiy tadbirlar davlatlar o‘rtasidagi do‘stlik va ahil qo‘shnichilik rishtalarini oddiy odamlar, san’at va adabiyot vakillari darajasida yanada mustahkamlaydi.

Shubhasiz, o‘tayotgan hafta O‘zbekiston Respublikasi uchun ichki taraqqiyot va tashqi siyosiy faoliyatning uzviy bog‘liqligini namoyish etgan, kelajakka qaratilgan muhim voqealarga boy bo‘ldi. Energetika sohasidagi boshqaruv samaradorligini oshirishdan tortib, Yangi Toshkentning ilm, ma’rifat va sport markazi sifatida barpo etilishi, Qozog‘iston va Qirg‘iziston bilan strategik hamkorlikning yangi bosqichi va tibbiyot sohasida Saudiya Arabistoni bilan aloqalarning chuqurlashishigacha bo‘lgan jarayonlar Prezident Shavkat Mirziyoyevning rahbarligida Yangi O‘zbekistonning ko‘p qirrali va shiddatli taraqqiyotini aks ettiradi.

YUNESKO tomonidan Toshkent modernizm me’morchiligining e’tirof etilishi esa mamlakatning nafaqat iqtisodiy, balki madaniy salohiyati ham jahon miqyosida yuksak baholanayotganini ko‘rsatadi.

Iqbol MIRZO

YAGONA VATAN, YAGONA XALQ

Boshlanishi 1-sahifada.

Sana munosabati bilan Prezident tabrigi e’lon qilinishi ezgu an’anaga aylandi. Bularning barchasi mintaqamizda qadim davrlardan buyon davom etib kelayotgan etnik xilma-xillikning Yangi O‘zbekiston sharoitida yangicha ma’no-mazmun va an’analarga ega bo‘lib borayotganiga yorqin misoldir.

Barchani birgalikda nishonlayotganimiz – Xalqlar do‘stligi kuni bilan chin qalbimdan tabriklayman! Barcha millat va konfessiyalar vakillari hamda xorijdagi vatandoshlarimizga sihat-salomatlik, faoliyatlarida yuksak zafarlar, oilaviy baxt, xonadonlariga fayz-u baraka tilab qolaman!

Mobil MAMEDOV,
Ozarbayjon milliy madaniyat markazi rahbari:

– Biz o‘z taqdirimiz va kelajagimizni jonajon O‘zbekiston bilan bog‘laganimizdan baxtiyormiz. Shu muqaddas Vatanning ajralmas qismi sifatida yurt taraqqiyotiga, tarixiy vatanimiz bilan mamlakatimiz o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga hissa qo‘shib kelayotganimizdan faxrlanamiz. Yosh avlodni ham ana shu ezgu qadriyatlar ruhida tarbiyalashni o‘zimiz uchun muhim vazifa deb bilamiz.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tgan yili 16-noyabr kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Sammitda Ozarbayjon Maslahat uchrashuvlari formatiga to‘la huquqli a’zo sifatida qo‘shilgani mamnuniyat bilan e’lon qilindi. O‘zbekiston yetakchisi ta’kidlaganidek, bu qaror mushtarak tarix, qardoshlik rishtalari, ma’naviy va madaniy yaqinlik bilan uzviy bog‘langan xalqlarimiz manfaatlariga to‘liq javob beradi. Ozarbayjon milliy madaniy markazi ham ana shu do‘stlik mustahkamligi va bardavomligiga katta mas’uliyat va shijoat bilan hissa qo‘shishni maqsad qilgan.

Xalqlar do‘stligi kuni bizning eng sevimli bayramlarimizdan biriga aylangan. Bu gal ham sanaga bag‘ishlangan “Do‘stlik festivali”ga ko‘tarinki ruhda tayyorgarlik ko‘rdik. Bayram orqali xorijiy mehmonlar va yurtdoshlarimiz turli millatlarning tarixi, madaniyati va an’analari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mana shunday nurafshon kunda tilimiz va dilimizda bir niyat aylanadi: “Barchamiz uchun yagona Vatan bo‘lgan jonajon O‘zbekistonimiz doimo omon bo‘lsin, hamisha gullab-yashnasin!”

Gulandom SUBHANOVA,
Tojik milliy madaniy markazi rahbari:

– So‘nggi yillarda O‘zbekiston rahbarining qat’iy siyosiy irodasi bilan mintaqamizdagi davlatlar o‘rtasidagi do‘stona aloqalar yangi bosqichga ko‘tarildi. Jahon siyosatida “Markaziy Osiyo ruhi” degan ibora va voqelik paydo bo‘ldi. Bu kunlarga yetish oson bo‘lmaganini yaqin tariximizni eslaganda teranroq his qilamiz. Ushbu islohotlarning samarasi haqida gapirganda, O‘zbekiston – Qirg‘iziston – Tojikiston chegaralari tutashgan nuqtada barpo etilgan “Do‘stlik” stelasi ko‘z oldimda gavdalanadi. Bu



ham yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlari mustahkamlanib borayotganidan dalolatdir.

Bag‘rikenglikka yana bir misol. O‘zbekistonda “Ovozi tojik” gazetasi chop etiladi. Mazkur nashrning ta’sis etilishida Sadriddin Ayniy va boshqa jadidlarning ulkan hissasi bor. Bugungi kunda gazeta tojikzabon aholini mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, shuningdek, boshqa zarur axborotlar bilan ta’minlab kelmoqda. Ayni paytda, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida Tojik adabiyoti kengashi faoliyat yuritayotgani ham quvonarlidir.

Yurtimizda barcha millat va konfessiyalar vakillarining huquq va manfaatlari Konstitutsiya va qonunlar talablari asosida qat’iy himoya qilinadi. O‘zbekiston fuqarolari, millatidan qat’i nazar, davlatimizning iqtisodiy va ijtimoiy qudratini oshirish, xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini yuksaltirish yo‘lida mehnat qilib, butun kuch-g‘ayrati, bilim va tajribasini boricha safarbar etishga intiladi.

Guldona AVEZDURDIYEVA,
Turkman milliy madaniy markazi rahbari:

– O‘zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda davlat va nodavlat tashkilotlari o‘rtasida samarali hamkorlik o‘rnatilgan. 160 ga yaqin milliy-madaniy markaz, 40 dan ortiq do‘stlik jamiyati va xorijdagi 100 dan ortiq vatandoshlar jamoat birlashmalari davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda yurtimizda do‘stlik va bag‘rikenglik muhiti, milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligini mustahkamlashda ijobiy natijalarga erishmoqda.

Eng asosiysi, O‘zbekistonda turli millatga mansub fuqarolar davlat va jamoat tashkilotlarida mas’ul lavozimlarda sidqidildan mehnat qilmoqda, munosib xizmatlari uchun Vatanimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanmoqda. Ularning orasida deputat va senatorlar, taniqli ishlab chiqarish vakillari, tadbirkorlar, ta’lim, tibbiyot, ilm-fan, madaniyat, adabiyot, san’at va sport namoyandalari borligini yaxshi bilamiz.

Davlatimiz rahbarining bu boradagi misli ko‘rilmagan islohotlari qalblarimizni to‘lqinlantirib yuboradi. “Do‘stlik” ordeni borligini bilamiz. Muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan “Oliy Darajali Do‘stlik” ordeni ham ta’sis etildi. Darhaqiqat, so‘nggi yillarda Vatanimizda do‘stlik va strategik hamkorlik oliy darajaga ko‘tarilganini butun olam e’tirof etib turibdi.

Turkman xalqining buyuk dahosi Maxtumquli yozib ketganiday: “Qardoshsizda quvvat yo‘qdir”. O‘zbekiston esa bu borada eng quvvatli, eng kuchli mamlakatlardan biri. Ilohim, bu o‘lkaga, bu mintaqaga ko‘z tegmasin!

Z.IBROHIMOVA yozib oldi.



OYDIN KELAJAKNI KO‘ZLAB...

Boshlanishi 1-sahifada.

Bu faqat raqam ortidan quvish yo chiroyli statistika yaratish ortidan hosil bo‘lmadi. Eng muhimi, har doim sifatga birlamchi e’tibor qaratilmoqda. Son va sifat munosabatlarining o‘ziga xosliklari bor. Hozir sifat bosqichiga o‘tdik. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ikki yildan beri barcha oliy ta’lim muassasalariga xalqaro dasturlarni joriy etish, yoshlarga ko‘proq chet ellarda o‘qish imkoniyatini yaratish, professor-o‘qituvchilarning xorijda stajirovkasini tashkil etish, o‘quv darsliklarini zamonga moslashtirish ishlari jadal olib borilmoqda. Xorijiy dasturlarni tanlashda “TOP-300”talikka kirgan universitetlarni ma’qul topganmiz. Bu o‘z navbatida talabaga xalqaro darajada ta’lim olish imkoniyatini yaratib, diplomni qo‘lga olgach, nafaqat O‘zbekistonda, balki chet elda ham ishlash imkoniyatini beradi.

O‘zgarishlar faqat o‘quv dasturlari va moddiy-texnik baza bilan cheklanmaydi. Har yili 15-16 foiz professor-o‘qituvchilar dunyoning yetakchi universitetlarida ishlab kelyapti. Bunaqasi oldin bo‘lmagan. Hamkorlik geografiyamiz ham kengaydi. Yaqin yillargacha atigi yettita davlat bilan xalqaro darajadagi filial ochgan bo‘lsak, keyingi o‘n yilda ularning soni 32 taga yetdi. Bu safda AQSH, Fransiya, Yaponiya, Xitoydan kuchli universitetlar O‘zbekistonga kirib kelyapti. Markaziy Osiyoda o‘ziga xos ta’lim xabiga aylanyapmiz. Yana bir tomoni: ilgari hamkorlik taklif qilgan universitetlar bilan qo‘shma ta’lim loyihasi yoki filial faoliyatini boshlayverganmiz. Endi biz ham talabni kuchaytiryapmiz. Prezidentimiz “TOP-500”talikka kirgan universitetlar uchun sharoit yaratib berilishini aytdi. Shu orqali o‘zimizda, milliy muhitdan uzilmagan holda, yangicha formatda va jahoniy miqyosda fikrlaydigan talabalarni tarbiyalaymiz.

O‘tgan zamonda biz ergashuvchi edik, ya’ni, bor texnikani o‘rganib, shuning orqasidan oliy ma’lumotli bo‘lardik. Hozirgi talab – yangi texnologiyalar yaratishga qaratilgan. Hamma sohada yangicha yondashuv kerak. Buning hammasi keyingi o‘n yilda oliy ta’limga berilgan imkoniyatlarning natijasidir.

– Darhaqiqat, suhbatimizdan avval ham xorijlik hamkorlarni kuzatib qo‘yganingizga guvoh bo‘ldik. Bilishimizcha, har kuni ikki-uch bor shunday muloqotlar bo‘lar ekan. Bu uchrashuvlarda qanday masalalar ko‘rilyapti, qanday hujjatlar imzolanyapti? Bir so‘z bilan aytganda, bundan o‘zbekistonlik yoshlar uchun qanday manfaatlar ko‘zlangan?

– To‘g‘ri, bu safar ikkita davlatning universiteti bilan tegishli hujjatlarni imzoladik.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘tgan yili dekabr oyida Tokioga rasmiy tashrifi doirasida Yaponiyaning Sukuba, Nagoya, Tottori universitetlari, Tokio qishloq xo‘jaligi va texnologiyalar universiteti, Nagoya iqtisodiyot universiteti kabi yetakchi oliy ta’lim muassasalarining rahbarlari bilan uchrashdi. Nega? Bugungi kunda 2,8 mingdan ortiq o‘zbekistonlik talaba Yaponiyaning yetakchi ta’lim muassasalarida tahsil olmoqda. Bu universitetlar mamlakatimiz uchun eng dolzarb bo‘lgan sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar, qishloq va suv xo‘jaligi, “yashil” energiya va barqaror rivojlanish, seysmologiya va “aqlli shahar” texnologiyalari kabi sohalar bo‘yicha mustahkam ilmiy-tadqiqot infratuzilmasi va yuqori ilmiy hamda pedagogik salohiyatga ega. Xususan, Sukuba universiteti bilan birgalikda O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasasini tashkil etish bo‘yicha memorandum imzolangan edi. Ana shu ta’lim dargohi vakillari bu gal yurtimizga tashrif buyurdi.

Ayni Yaponiya tashrifida boshqa davlatlarda kuzatilmagan holat bo‘ldi: Prezidentimiz rektorlar bilan uchrashdi va ular bizga taklif bilan murojaat qilishdi. Ularning niyati shuki, O‘zbekistonga o‘z dasturini olib kirib, shu asosda tanlangan talabalar Yaponiyada o‘qish imkoniga ega bo‘ladi. Natijada yangi texnologiyalar yarata oladigan salohiyatli kadrlar yetishib chiqadi.

Shuningdek, Germaniya vakillari bilan kasbiy ta’lim bo‘yicha muhim hujjatni imzoladik. Ilmiy tadqiqot bo‘yicha chet ellik hamkorlarimiz bilan muhokama o‘tkazdik. Ular qancha ko‘p bo‘lsa, bizda tanlov imkoniyati keng bo‘ladi. Tanlov esa ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi. Aytganimday, avval chet el universitetlariga yalinib yurardik, ularning shartlariga ko‘nardik. Hozir endi ikki tomonlama manfaatli munosabatlarni yo‘lga qo‘yish bosqichiga ko‘tarildik. Masalan, xorijiy universitetlarning kontrakti narxlari tushirilyapti. Bularning barchasi yuqori bilim va tajribaga ega mutaxassislarni tayyorlash hamda yoshlarimizning ichki va tashqi mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishini osonlashtirishga qaratilgan. Bitiruvchilar oliy ta’limni tugatgandan keyin vakant joy qidirib yurmasligi kerak. Hozir mehnat bozoriga qaraydigan bo‘lsak, katta raqobat boshlanganini ko‘ramiz. Bu vaziyatda yangi avlod chekiga o‘ziga o‘zi ish o‘rni yaratish yoki atrofidagi yoshlar uchun ham qo‘shimcha ish o‘rni yarata olish vazifasi tushmoqda.

Ikkinchidan, hozir chet elda ta’lim olayotgan yoshlarimiz ham qaytib kelyapti. Bu xalqaro universitetlar ular uchun yaxshi platforma. Ular kelib bizda dars bersa, ko‘rganini yoshlarga tez va oson singdira oladi. Chet el muhitini his qilmasdan turib xorij dasturini o‘qish yaxshi samara bermaydi. Kelganlarning maoshlari to‘g‘risida gapiradigan bo‘lsak, ular xorijdagi ish joylaridagiday, balki undan ham ortiqroq maosh olyapti hozir. Agar mutaxassis o‘z ustida ishlasa, yangilik yaratsa, grantlarda qatnashsa, ilmiy unvoniga qarab qo‘shimcha pul berilyapti. Bularning barchasi Davlatimiz rahbari tomonidan yaratib berilgan sharoitdan.

– Tizimda vazir ham ilojsiz qoladigan masalalar bo‘ladi. Ya’ni, masala yechimi bir kishiga yoki moddiy ta’minotga emas, umumjamoaga yoki jamiyatga taalluqli bo‘ladi. Mana shunday masalalardan qaysi biri bugun yuragingizga og‘ir botadi? O‘zgarishlar to‘lqiniga to‘siq bo‘layotgan “tik qoya”lar nimalarda ko‘rinadi?

– Birinchidan, aksar professor-o‘qituvchilarda hamon sovet davrining tor qoliplarga solingan uslublar saqlanib qolgan. Ular belgilangan darsini beradi va maoshini oladi, tamom. Haligacha yoshlarni kreativ fikrlashga, mustaqil ishlashga o‘rgatadigan ta’limni yo‘lga qo‘ya olmayapmiz. Ikkinchidan, hozir ham ko‘pchilik ota-onalar farzandini faqat diplom uchun o‘qitadi. Ana shu ham katta xatolardan biri. Chunki diplom uchun o‘qiyotganlar darsni qunt bilan o‘rganmaydi, topshiriqni yaxshi bajarmaydi. O‘quv dargohiga kun o‘targa kelib-ketadi. Bu esa, o‘z navbatida, bozorga malakasiz kadrlarning kirib kelishiga sabab bo‘ladi. Mutaxassis bo‘lish uchun sohani sevish kerak. Majburan o‘qishga kirgan bolada kasbga mehr bo‘lmasa, u baribir mehnat bozoridan joyini topolmaydi. Hozirgi ota-onalarga aytamanki, farzandga ixtiyor berish kerak. Qaysi joyda o‘qiyman desa, shunga yo‘naltirish lozim.

Uchinchidan, ta’lim jarayoniga tanish-bilishchilik, qarindosh-urug‘chilikning aralashuvi bor. Masalan, kimningdir farzandi yaxshi o‘zlashtira olmayotgan bo‘lsa, ota-onasi o‘rtaga tushib, baholarini qo‘ydirib beradi. Aslida, bu talabaga ham, ota-onasiga ham, jamiyatga ham zarar. Ertaga ish topa olmasa, yana universitet aybdor bo‘ladi. Muhimi, farzandlarimizni yoshligidan o‘zi qiziqqan yo‘nalishda sekin-asta tayyorlab borish kerak. Maktabda to‘garaklarga yo‘naltirilsa, keyin shu bo‘yicha kollej yoki texnikumni bitirishi mumkin. Ana unda yaxshi ish ham topadi. Hamma ham oliy ta’limda o‘qishi shart emas. Butun dunyoda 70 foiz ish o‘rni texnikumni bitirganlar, o‘rta bo‘g‘in xodimlari uchun mo‘ljallangan.

– So‘nggi yillarda davlat va xususiy oliy ta’lim muassasalarini bir-biriga zid qo‘yish yoki taqqoslash holatlari ko‘p uchramoqda. Bu boradagi qarashlaringiz qanday?

– Oliy ta’limda yoshlarga tanlov huquqi berilgan. Davlat oliy ta’lim muassasasida klassik bilim beradi. Bilasiz, klassikada talablar ham boshqacharoq bo‘ladi. Xususiy ta’lim muassasalari dasturlari o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin va yoshlarga ko‘proq imkoniyat beriladi. Gap bunda emas. Hozir davlat va nodavlat oliy o‘quv yurtlariga teng talablar qo‘yilmoqda. Oliy ta’limga kirishda ham, o‘qish jarayonida ham raqamlashtirish hamma joyga kirib kelyapti. Diplomga qo‘yilgan talablar ham bir xil. Bu hammasi bir-biri bilan integratsiyalashgan tizim. Hamma gap abituriyent tanlovida. Kimdir yashash manziliga yaqin joyda o‘qishni istaydi. Kimdir poytaxt yoki viloyat markazlaridagi nufuzli universitetlarni tanlaydi. Hozir O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti eng ko‘p hujjat topshiriladigan dargohlardan.

Qirqqa yaqin universitetimiz nufuzli xalqaro reytinglarda qatnashib, o‘rni yuqorilayapti. Buning natijasida qo‘shni va boshqa davlatlardan ham talabalar kelib o‘qishni boshladi. Masalan, Turkmanistondagi siyosat shundayki, chet elda o‘qish uchun talabaning boradigan universiteti “TOP-1000” talikda bo‘lishi kerak. Shuning uchun hozir “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti va Toshkent davlat texnika universitetida chet ellik talabalar soni ortib bormoqda. Demak, boshqa ta’lim muassasalari kelajakda reytingini ko‘tarishga erishsa, mahalliy va xorijiy talabalar soni yanada oshadi.

– Mana, oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlari yakunlandi. Bu borada qanday o‘zgarishlar bo‘ldi?

– Birinchisi, yildan yilga test topshirish jarayonini osonlashtiryapmiz. Esingizda bo‘lsa, bundan o‘n yilcha oldin yoshlarimiz 1-avgust kunigacha bir oy hujjat topshirardi. Ungacha qancha qog‘ozbozlik bo‘lardi. Masalan, tibbiy ma’lumotnomasi noto‘g‘ri bo‘lsa, yana tumaniga borib kelardi. Bu narsalarning hammasi yo‘qoldi. Abituriyent uyida o‘tirib hujjat topshiryapti. Qayerda imtihon topshirishni tanlayapti. O‘zining hududida ham imtihon topshirishi mumkin. Oldinlari faqat bitta universitetni tanlardi, hozir beshta yo‘nalishni tanlash huquqi bor. Unisiga bali yetmasa, bunisiga yetishi mumkin. Eng muhimi, hozir o‘zining qiziqqan yo‘nalishi bo‘yicha faqat test topshirib keladi. Keyin universitetni tanlaydi.

O‘tgan yilgi “o‘tish bali”ni ko‘rib, qaysiga o‘zining bilimi to‘g‘ri kelsa, shu yerga topshirsa, ko‘proq grant o‘rinlarga kirish imkoniyati bor. Ya’ni, bu tizim iqtidorli bolalar uchun mo‘ljallangan. Institutga boshida grantga kirish, to‘rt yil shunday davom etadi, degani emas. Agar u o‘qishini susaytirib qo‘ysa, kontraktda yaxshi o‘qigan talaba uchun bu yaxshi imkoniyat bo‘ladi – o‘rin qayta taqsimlanadi. Bu ham talabalar o‘rtasidagi raqobatni shakllantiradigan tizim. Qayerda raqobat bo‘lsa, shu yerda o‘sish bo‘ladi.

Hozir sekin-asta talabalar professorlarni tanlaydigan bosqichga keldik. Kredit-modul tizimida talabalar keyingi o‘quv yilida qaysi professorda o‘qimoqchi bo‘lsa, shu ustozni va fanni tanlash huquqiga ega. Hozir tajriba sifatida ayrim oliy ta’lim muassasasida qo‘lladik. Kamchiliklar qadam-baqadam tugatib borilyapti. Professor-o‘qituvchilarimizning reytingini har yil e’lon qilyapmiz. Bu katta yangilik.

– Ustoz, har bir odamning hayotda o‘z missiyasi bo‘ladi, deyishadi. Faqat uni aniqlab olish kerak ekan. Siz o‘z hayotiy vazifangizni qay darajada uddalayapsiz?

– Har kimning peshonasiga har xil taqdir yoziladi. Menga vazir bo‘lish yozilganmi, demak, mana shu vazirlikka qo‘yilgan talablarni sidqidildan bajarish – mening missiyam. Xalqni rozi qilish, ya’ni, talabalarimizni, ota-onalarni, professor-o‘qituvchilarni rozi qilish, adolatli boshqarish va eng asosiysi, iqtidorli yoshlarni tanlab, ularga o‘sish uchun imkoniyatlar yaratib berish kerak.

Har kuni men birinchi navbatda shu yoshlarning loyihalari bilan qiziqaman va ko‘plab tanlovlar o‘tkazamiz. Shularning ichidagi iqtidorli yoshlarni tanlab, kelajakda ularni xalqaro darajaga olib chiqish, ishlanmalarini amaliyotga joriy etish – mana shunday rejalar bilan yashayapman hozir.

– Demak, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi “Jadid” gazetasi tahririyati bilan iqtidorli talabalar uchun yirik ijodiy ishlar tanlovini e’lon qilgani ham bejiz emas.

– Muhtaram Prezidentimiz yaqinda “Har bir talaba o‘ziga yarasha iqtidor egasi, masalan, u injenerlik bo‘yicha o‘qir, shu bilan birga, yaxshi ashula aytishi mumkin, ularning iste’dodiga imkoniyat beraylik”, dedi. Ana shuni ko‘p o‘yladik. Iqtidorli yoshlar she’rlar yozsa-yu, ularni qo‘shiqqa aylantirsak, yana tanlov o‘tkazsak-da, eng yaxshisini xalqqa taqdim etsak, deb niyat qildik. Shuning uchun gazeta tahririyati bilan hamkorlikda shu tanlovni e’lon qildik.

Tanlovda birinchi, ikkinchi, uchinchi o‘rinni olgan talabalarga pul mukofotlarini beramiz, boshqa mukofotlar ham bor. G‘oliblarni kelajakda ham qo‘llab-quvvatlaymiz. Mana, “Ovoz” degan ko‘rsatuv bor-ku. Shu dasturga o‘xshash kelajakda “Talaba – talant” degan bir loyiha o‘ylayapmiz.

“Besh tashabbus” loyihasi bejiz ishlab chiqilmagan. Kimdir yaxshi rasm chizadi, kimdir yaxshi ashula aytadi, kimdir sport sohasida kuchli. Sport bo‘yicha musobaqalarimiz joyiga qo‘yilgan. Mana, talabalar o‘rtasida Prezident olimpiadasi o‘tkazilyapti. Shu asosda yosh sportchilarni tanlayapmiz. Iqtidorli talabalarni tarbiyalashda hali qiladigan ishlarimiz ko‘p. Bu tanlov ana shu yo‘ldagi bir qadamdir.

– Ustoz, suhbatimiz so‘ngida yoshlarimizga nima degan bo‘lardingiz?

– Men nafaqat yoshlarga, ota-onalarga ham murojaat qilmoqchiman. Birinchi navbatda bola tarbiyali bo‘lishi kerak. Agar namunali axloq bo‘lsa, bola ta’limni ham yaxshi oladi, kasbni ham yaxshi o‘rganadi. Yaxshi kasb va yaxshi xulqqa ega inson jamiyatda o‘rnini tez topadi. Ishlaydigan yoshlarga aytgan bo‘lardimki, doim tashabbuskor bo‘lish lozim. Yaratuvchan inson kelajakda yomon yashamaydi. Yomon yashayotganlar yo kasbini noto‘g‘ri tanlagan, yo jamoada o‘z o‘rnini topa olmagan, o‘z navbatida ikkov vajga ham asosiy sabab – tarbiya to‘kis bo‘lmagani. Shuning uchun yoshlarimizga maslahatim: bolalikdan maqsadni aniqlab, hamisha to‘g‘ri yo‘lni tanlash kerak.

Fursatdan foydalanib, yana aytmoqchi edimki, oliy o‘quv yurti professor-o‘qituvchilari va talabalari zimmasida ulkan ishonch mas’uliyati borligini aslo unutib bo‘lmaydi. Sezib turganingizdek, Prezidentimiz millat oldiga Uchinchi Renessans poydevorini qo‘yish va Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga ulush qo‘shishdek oliyjanob vazifani belgilab berganini nazarda tutyapman. Har bir ustoz, har bir talaba, jadid bobolarimiz orzu qilgan oydin kelajakni ko‘zlab, fidoyilik bilan izlanishi, o‘qishi va mehnat qilishi shart deb hisoblayman.

– Samimiy suhbatingiz uchun rahmat.

Zarnigor IBROHIMOVA
suhbatlashdi.



“Ilm ila kimning dili ravshan erur,
U zamon ichra salomat tan erur.”

Farididdin ATTOR

OLAM OLIMI

IQLIM “BARMOQ IZLARI”



2021-yilda fizika bo‘yicha Nobel mukofotining yarim ulushi “Yer iqlimini fizik modellashtirish, iqlim o‘zgarishini aniqlash va global isishning ishonchli tahlili uchun” Klaus Xasselman va Syukuro Manabega berildi.

HAYOT YO‘LI

Syukuro Manabe 1931-yil 21-sentyabrda Yaponiyada tug‘ilgan. Tokio universitetida meteorologiya mutaxassisligi bo‘yicha 1953-yilda bakalavr, 1955-yilda magistr darajasini oldi. 1959-yilda doktorlik ishini muvafaqqiyatli himoya qilgach, AQSHga ko‘chib o‘tdi. Avval Milliy okeanografiya va atmosfera boshqarmasida ishladi, bir muddat Yaponiyada yashagach, yana Prinston universitetiga qaytib keldi. Hozirda shu universitetda katta meteorolog bo‘lib ishlaydi. 2007–2014-yillarda Nagoya universitetida maxsus taklif qilingan professor sifatida ishladi. Oilali, ikki qizning otasi.

Klaus Xasselman 1931-yil 25-oktyabrda Germaniyada tug‘ilgan. 1950–1955-yillarda Gamburg universitetida fizika-matematika bo‘yicha o‘qidi. U fizika va suyuqlik dinamikasi bo‘yicha ishini Gyottingen universitetida davom ettirdi. 1957-yilda doktorlik darajasini oldi. Shundan so‘ng 1961-yilgacha Gamburg universitetida ilmiy xodim bo‘lib ishladi. Bir muddat Kaliforniya universitetida professorlik lavozimini egallagan. Yana Gamburg universitetiga qaytib, faoliyatining ko‘p qismini u yerda o‘tkazgan. Gamburgdagi Maks Plank meteorologiya institutining asoschi direktori bo‘ldi va u yerda 1999-yilgacha direktor bo‘lib ishladi. Oilali, uch farzandi bor.

ILMIY YUTUQ

Insoniyat uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab tizimlardan biri bu – Yer iqlimi. Syukuro Manabe atmosferadagi karbonat angidrid miqdorining ortishi Yer yuzasida haroratning oshishiga olib kelishini ko‘rsatdi. 1960-yillarda u Yer iqlimining fizik modellarini ishlab chiqishga rahbarlik qildi. Radiatsiya balansi va havo massalarining vertikal tashishi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni o‘rgangan birinchi odam bo‘ldi. Uning ishi hozirgi iqlim modellarini ishlab chiqish uchun asos yaratdi.

Taxminan o‘n yil o‘tgach, Klaus Xasselmann ob-havo va iqlimni bog‘lovchi modelni taklif etdi. Shu tariqa ob-havoning o‘zgaruvchan va beqarorligi, iqlimning esa muqimligi, evolyutsion xarakteri va keng qamrovliligi o‘rtasida chegara aniqlab olindi. Shuningdek, u tabiiy hodisalar va inson faoliyatidagi iqlimga ta’sir qiluvchi signallarni, “barmoq izlari”ni aniqlash usullarini ishlab chiqdi.

“BARMOQ IZI”

1979-yilda Xasselman iqlim o‘zgarishining “fingerprint” (“barmoq izi”) usulini taklif qildi. Bu usulning asosiy g‘oyasi: iqlimga ta’sir qiluvchi har bir omil (“issiqxona gazlari”, vulqonlar, quyosh faolligi, aerozollar) Yer iqlimida o‘ziga xos fazoviy va vaqt bo‘yicha o‘zgarish qoldiradi.


Klimatik modellar orqali ushbu “barmoq izlari” keyin kuzatilgan ma’lumotlar bilan taqqoslanadi. Bu usul yordamida olimlar XX asr o‘rtalaridan keyingi global isishning asosiy sababi inson faoliyati ekanligini yuqori darajadagi ishonch bilan isbotladilar.

Jasmina ISROIL
tayyorladi.

TALQIN

“Yo jonim, muhabbat!”

Zamonaviy o‘zbek she’riyatining taniqli va o‘ziga xos ovoziga aylangan shoir Abduvali Qutbiddinning “Tanlangan asarlar”i chop etildi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida nashr qilingan mazkur to‘plamda shoirning qariyb qirq yillik ijodiy izlanishlari va badiiy kashfiyotlari jamlangan. Kitobga ijodkorning hayotlik davrida chop etilgan asarlari saralab kiritilgan, shu bilan birga, avval nashr yuzini ko‘rmagan “Koshiniy” to‘plamidan ham namunalar o‘rin olgani uning qiymatini yanada oshiradi.



Abduvali Qutbiddin izdoshlari G‘afur Shermuhammad va Nodir Jonuzoq bilan.

Abduvali Qutbiddin she’riyat maydoniga kirib kelgan ilk qadamlaridanoq katta ustozlar e’tiborini qozongan edi. Shoirning inson kechinmalari nozik va ta’sirchan tarzda tarannum etilgan misralari qatiga tiyrak nazar tashlasak, ulardagi ma’no, ohang, timsollar azaliy qadriyatlarimizdan, ajdodlarimizning o‘lmas ruhidan quvvat olganini anglaymiz. Uning she’riyatida folklor obrazlarini stilizatsiya qilish orqali milliy koloritni kuchaytirish, poetik nutqni xalqona ruh bilan boyitish va ramziy-obrazli tafakkurni chuqurlashtirish tendensiyasi yaqqol namoyon bo‘lib turadi. Xizr, malika, dev, pari, ajdar, iblis, g‘ilmon, Humo, suv, olov, tosh va boshqa folklorga xos obrazlar zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg‘unlashadi.

Jumladan, shoir “Qarsillab yopilgan / Darvozada shom” deb boshlanuvchi kun kech bo‘lib, oqshom tushishi hamda tabiatdagi bu manzaraning inson ruhidagi evrilishlarda aks etishi tasvirlangan she’rida shunday yozadi:

Nima qilamiz endi
Bu oqshom?!
Qaydan tosh teramiz
Ko‘mmakka dilni.

Ushbu misralarda **“tosh”** obrazi o‘ziga xos ma’no tashiydi. Shu nuqtayi nazardan, obraz stilizatsiyasi nafaqat badiiy usul, balki adabiyot va folklor o‘rtasidagi dialektik aloqadorlikni ta’minlovchi muhim estetik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. U orqali an’ana va yangilik, milliylik va individuallik, og‘zaki va yozma ijod o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ta’minlanadi.

Darhaqiqat, “tosh” obrazi xalq ijodining deyarli barcha janrlarida – qo‘shiqlar, dostonlar, termalar, ertaklar, mif va asotirlarda uchraydi. Uning semantik maydoni keng bo‘lib, sabr-bardosh, metin iroda, qayg‘u-g‘am va ulardan xalos bo‘lish, tuhmat-malomatga qolish hamda boshqa qator ma’nolarni ifodalab keladi. Filologiya fanlari doktori Shomirza Turdimov “Xalq qo‘shiqlarida ramz” kitobida “tosh” obrazining mazmuni va folklor asarlaridagi ahamiyatini ochib bergan. Jumladan, olim “Xorazmda “etagimdagi toshni to‘kdim” iborasida “arazni, xafa bo‘lishni unutdim, urushli edik, yarashdim” kabi mazmun anglashilar ekan”, deb yozadi.

Xalqimizda “Boshing toshdan bo‘lsin”, deb duo qilish, boshqa oilaga kelin bo‘lib uzatilayotgan qiz ortidan tosh otib qolish, qabr boshiga tosh qo‘yish va boshqa urf-odat hamda an’analar ham borki, ularning bari “tosh” obrazining kundalik hayotimizda, marosimlarimizda, irimlarimizda serqatlam ma’nolarga egaligidan dalolat beradi. Va, albatta, bu ma’nolar xalq og‘zaki ijodiga singib, undan yozma adabiyotga ko‘chib, milliy ruhiyatimizga mos mohiyat, xalqona ohang tashiydi, asarlarni yanada o‘qishli, ta’sirchan qiladi.

Abduvali Qutbiddinning ham darvozada shom qarsillab yopilgan, sabri yelkasini chuqurlab o‘ygan, qarg‘alar bahorni egallab qo‘ygan bu oqshomda dilni ko‘mmakka tosh izlaganini o‘ziga bir yupanch, ruhiga tayanch, ko‘nglidagi og‘riqlarga malham axtargani sifatida anglaymiz. Zero, she’rning lirik qahramoni ana shunga muhtoj. Asarning oxirgi misralari buni yana bir bor oydinlashtiradi:

Qarg‘ish urdimikan,
Vahshiy irillab,
Itdek vovullaydi
Baxtsiz kunduzlar...

“Olislarda qo‘ng‘irog‘in chalar karvon” misrasi bilan boshlanuvchi quyidagi she’rga e’tibor bering:

Qoya cho‘kar, Alpomishning na’rasidan,
Soylar sakrar adirlarning orasidan,
Qarg‘a qo‘nmas Barchinlarning tizzasiga,
Hayot suvi mangu ona ko‘zasida.

Bu o‘rinda shoir afsonaviy “Alpomish” dostoni qahramonlarining kuch-qudratiga, el-yurt taqdiri uchun kurashchanligi, yengilmas bahodirligi, tiynati toza, fitrati go‘zal ekaniga ishora qiladi. Shu bilan birga, mazkur bandda **“suv”, “ko‘za”** kabi obrazlar stilizatsiyasi ham borki, ular zamiridagi teran ma’no misra mohiyatini yanada kengaytirib yuboradi.

Folklorshunos olim Asqar Musaqulov “O‘zbek xalq lirikasi” kitobida yozganidek, tarixiy asosida suv kulti va xalqning shu kult obyektlari bilan bog‘liq ishonchlari, irimlari turganligi uchun xalq lirikasida suv va uning analoglari: shabnam, tomchi, buloq, quduq, ariq, hovuz, soy, ko‘l, daryo, qor, yomg‘ir; aniqlovchilari: suv bo‘yi, ariq bo‘yi, daryo yoqasi, qamish, suv bo‘yida o‘suvchi daraxtlar, o‘simliklar; suv jonivorlari: baliq, ilon, qunduz; suv idishlari: ko‘za, kosa, piyola, chelak, choynak, choy va h.k. – barchasining poetik obrazlari, albatta, biror jihati bilan sevgi, oila, intim kechinmalar, farzand va farovon turmush g‘oyalari bilan bog‘lanadi. Bu xalq qo‘shiqlari uchun an’ana tufayli paydo bo‘lgan o‘ziga xos bir qonuniyatdir. Shu bois, “Barchinlarning tizzasiga qarg‘a qo‘nmasligi” – qizlarimizning iffati pokligini, “Hayot suvining mangu ona ko‘zasida” ekani ular tufayli hayotning bardavomligini ifodalaydi.

Shoirning folklor obrazlari va ularning mohiyatidagi teran ma’noni juda chuqur bilgani, ushbu elementlardan asarlarida ustalik bilan foydalangani “Shubhasiz, Humoday yoyib qanotin / Tiniq oqshomlarda kulgay kelajak” (“Niyat”), “Imkonim muhibi hamroz emas... / Musiqor mug‘anniy bo‘lgan mahal / Parilar qizlarga berur sayqal / Yigitlar orzusi – ul Tojmahal” (“Imkonim muhibi hamroz emas”), “Momo Havo tavba qilgan chaylalardan / Chiqqan navo eshik izlar har ko‘krakda” (“Oraliqda”), “Karvoningning sarbonlari oq g‘ozlaring / She’r o‘qishar chayqatguncha qil ko‘prikni” (“Ishxonada, tush mahali”) singari qator misralarida yaqqol aks etadi. Bu folkloriy obrazlarning har birida xalqimiz tafakkuri va tasavvurida asrlar davomida yashab kelayotgan tushunchalar, teran mag‘z borki, ular adabiy asarni mazmunan boyitgan, xalq qalbiga yanada suyukli qilgan.

Bu satrlarni o‘qib, shubhasiz, Abduvali Qutbiddin she’riyati dunyoni obrazli idrok etishning yorqin namunasi ekaniga yana bir bor amin bo‘lamiz. Shoir o‘zi qalamga olmoqchi bo‘lgan har bir lahza, voqea va hodisani qalbidan o‘tkazib, uni kamalakdek ranglarga burkaganiga tahsinlar aytamiz. Shu bois, uning she’rlari o‘quvchi qalbida nafaqat taassurot, balki ichki bir titroq, ruhiy bir uyg‘onishni paydo qiladi.

Abduvali Qutbiddinni ko‘pchilik modernist shoir deb biladi. Bu ta’rif asosan uning she’rlaridagi yangicha uslub va o‘ziga xos kompozitsiya sabab paydo bo‘lgan esa, ajabmas. Biroq bu ash’orning har biri mohiyatan sharqona ruh bilan sug‘orilganini, milliy tomirlarga tutash ekanini ularni qayta-qayta o‘qib, chuqurroq anglash orqali yurakdan his qilish mumkin.

Shu o‘rinda, shoir yaratgan “Osima” obrazi haqida ham ikki og‘iz so‘z. Osima obrazining butun shakl-u shamoyili, fe’l-u sajiyasi tamomila o‘zbek xarakteriga, millatimiz ruhiga monand, desak, ayni haqiqat. U To‘maris, Barchinoy, Qaldirg‘och, Gulqiz, Xolbeka, Yunus pari, Misqol pari, Gulnor pari, Zuhra, Shohsanam, Dilorom, Zumrad kabi xalq og‘zaki ijodi qahramonlarining ezgu fazilatlarini o‘zida mujassam etadi.

“Daf’atan shoir kechinmalarini ilg‘ash qiyindek, tasavvuringizda bu ingichka holatlar bir-biri bilan uzviy emasdek tuyulishi mumkin, – deb yozgan edi Abduvali Qutbiddinning ilk kitobi – “Nayson”ga so‘zboshi yozgan Rauf Parfi. – Favqulodda o‘xshatishlar, kinoyalar, istioralar... O‘qib ajablanasiz, bu she’rlar boshqalarning she’rlariga sira o‘xshamaydi. Hatto bir qarashda misralar “qovushmagandek”. Ammo hukm etishga shoshmang! Yana bir bor sinchkov o‘qing, shunda bu notabiiyroq ko‘ringan satrlar bir-biri bilan pinhona bog‘lanib, o‘ziga xos ruhiy iqlimni yaratayotganiga ishonch hosil qilasiz. Bu iqlimda siz tiriklikning teran qa’rlariga ildiz otgan xotirotning kuyunchak sadolarini tinglaysiz”.

Darhaqiqat, shoir hech kimnikiga o‘xshamas o‘z nazmiy olamini yarata oldi. Uning she’riyatida mayin ohanglardan ko‘ra shiddatkor ruh, jununvash qalb, haroratli tuyg‘ular ustuvorlik qiladi. Har bir asarida yangi rang, yangi ohang. Inson ruhini sirli-sehrli olamlar sari chorlay oladigan she’rlar muallifi, shubhasiz, o‘zbek adabiyoti uchun betakror hodisadir. U o‘zining hayratbaxsh tashbeh va istioralari, xalq ruhi, ong-u tafakkuriga chambarchas bog‘langan obrazlari orqali she’riyat imkoniyatlarining cheksizligini namoyon etdi. Insoniy va ilohiy muhabbat, Vatan va millat dardi, odam va olam haqidagi teran falsafiy mushohadalari bilan o‘ziga xos adabiy maktab yaratdi. Shu bois, ushbu asarlar doim keng o‘quvchilar ommasiga manzur bo‘lib, ularning ma’naviy ehtiyojini qondirishda muhim o‘rin tutadi.

Dilshod KARIMOV,
O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti mustaqil izlanuvchisi

Abduvali QUTBIDDIN

Anbar in’om etar senga chechaklar

* * *

Sohibdilim – diloro,
Ayyit, to‘xtasin karvon,
Nay puflagan quyunning
Enasimi biyobon?

Sohibdilim – diloro,
Qayda u chashma giryon.
Jilg‘a bo‘lgan ko‘nglimni
Quritib bo‘ldi mijgon.

Sohibdilim – diloro,
Ko‘zim mening qulfmidur,
Ochib, nigohim chiqsa,
Chopgan qilich zulfmidur?

Sohibdilim – diloro,
Qaqnus gulxani qani?
Bor bo‘lsa, yuzga surtay,
O‘tini yo kulini.

Sohibdilim – diloro,
Ko‘p riyozat chekdim-ku.
O‘zim ketdim. Yo‘lingga
Toatimni ekdim-ku.

Sohibdilim – diloro,
Vasling sarobmi – ro‘yo.
Hofiz emasman, ishqda
Abduvaliman go‘yo.

* * *

Subhlar ho‘playdi patli havoni,
Bir kun yolg‘onchilik qiladi aprel.
Men sening kelishing hech istamayman,
Biroq kel.
Zar ip eshayapti yog‘dular toshib,
Zim-ziyo hovoncha ezg‘ilaydi un.
Qavib, taxlab qo‘ydi shoyi ko‘rpani
Sen uchun tun.

Jarangdor soching ham bo‘lar po‘pakli,
Tillaqosh topilar ko‘k sandig‘ida.
Uch gaz bulut kessa bo‘lar chimildiq,
Visol tog‘ida.

...Kiprikka ilingan shabnam cho‘g‘dayin,
Bir kun haqiqatgo‘y bo‘lmadi aprel.
Men sening kelishing hech istamayman,
Biroq kel.
Eshityapsanmi?

Anbar in’om etar senga chechaklar,
Tobe mamlakatdir senga xush chaman.
...Men esa chimildiqqa kiraman-u,
Tizzangga bosh qo‘yib uxlab olaman.
Eshityapsanmi?

Suronlar chulg‘aydi patli havoni,
Bir kun o‘zim kabi laqmadir aprel.
Men sening kelishing hech istamayman,
Biroq kel…

* * *

Bulbullar mastona kashta gullarida,
So‘zana chetida uxlagan laylak.
Darparda ortida shamol ko‘pirtirgan
Bir kosa sharbat.

Sen ich-ey, boshlanur ajib hikoya,
Bahor jilmayadi chumchuq inidan.
Senga musichalar yasar zinapoya,
Yaproqdan.
Qani tush!
Adirlar ko‘ksini kesib beradi,
Ohista o‘ltirib uchamiz baland.
Biz uchun humolar donlar teradi
Ma’vo saltanati dalalaridan.
Shafaqlar xonatlas yanglig‘ yoyilur,
Dutor chertib asta porlar kahkashon.
Qo‘shiqlar yangraydi senga atalgan.
Sen ishon.
Oqqushlar paryostiq berar keltirib,
Yetti qavat ko‘rpa to‘shaydi tovus.
Shundoq yonimizga ketadi qo‘yib,
Oy tilla fonus.
Tizzangni quchoqlab boqasan dilgir,
Soatga qaraysan, kulimsiraysan:
Kech bo‘ldi, soat bir…
Bulbullar yiqilar kashta gullaridan,
So‘zana chetida o‘ladi laylak.
Darparda ortida shamol guvillar,
Kosa to‘la hasrat.

* * *

Minorlarni sog‘ingan laylak,
Kiyib kelar yangi oq ko‘ylak,
Aylantirar betinim parrak
Osmon, osmon.

Kashtalarni osar kamalak,
Ipin uzib uchadi varrak.
Chapak chalib yelar yelvizak, –
Ajab, ajab.

Registonda yechinar oqshom,
Yumshab, to‘shak bo‘lar keng maydon.
Qirdan oshib o‘tolmas Darg‘om, –
Nahot, nahot?

Bu yerda men yuragim halak,
U yerda sen og‘rigan ko‘krak.
O‘rtamizda hijron chirpirak, –
Hamon, hamon.

Minorlarni sog‘inib laylak,
Kiyib keldi yangi oq ko‘ylak...

VISOL

Yig‘ladim. Hovuchim to‘la suv bo‘ldi,
Tishimdan qon sizar, yurak – chanqovuz.
Boshingni eg, jonim, majnuntol kabi,
Bu hovuz.
Pichirlab ovozing suzmakdadirmi,
Ushatib tashlangan o‘zimni butkul.
O, nechun izillab yig‘ladi, aytgil,
Bul – bul.
Qaragin, yanchilgan osmon sepildi,
Zarralar sanchildi achchiq kuydirib.
Bir qozon atala ag‘dardi kecha
O‘kirib.
Chippa-chip yopishib g‘arq bo‘ldikmi-ey,
Etimiz tutashib birgamiz, bitta.
Bizni qiymalashga ulgurmaydilar,
Axir, bu ertaaakkk!
Yig‘ladim. Yig‘lading. Hovuch suv to‘la,
Tishlardan qon sizar, yurak – chanqovuz.
Egilsak sochimiz chirmashibdi-ya,
Qo‘shilib ketibdi
Ko‘zimiz.

HAJR

Hijron qish tuniday cho‘zilganida,
Kunlar ko‘k bag‘ridan uzilganida,
Yoshim piyoladan suzilganida,
Sog‘inchdan dil to‘lib buzilganida –

Kapalak qonini topinglar menga.

Yellar sudrab kirsa meni bog‘larga,
Sarg‘ayib to‘kilgan tillar qarg‘asa.
Meni ostonada changlar tupurib,
Visol keltirmagan yo‘llar qarg‘asa –

Kapalak qonini keltiring menga.

Xayr-u ehsonlarin to‘kkanida yoz,
Hidlab bug‘doylarni semirsa avgust,
Chumoli inida yo‘qolgan xasday
Qolsam-u hech kimsa tutinmasa do‘st,

Kapalak qonini beringlar menga.

Tog‘larning dahani bo‘lsa agar g‘or,
Falakka chirmashib o‘rlasa bug‘i,
Bu qadar armonga chiday olmasam,
Ko‘zimda muz kabi erisa yig‘i,

Kapalak qonini ichiring menga.

QASAM

Faromush bog‘larda sollanib mahzun,
Zarrin sarpolarda, davlati fuzun,
Qalbimga yedirar non hamda tuzin,

Yo jonim muhabbat,
Sim-sim-ey, sim-sim,

Mabodo aldasam, qo‘llarim sinsin.

O‘kinch tilaklarda bolalik badbaxt,
Sevgining nomidan yozadi tilxat.
Agarda yashasam qaldirg‘ochsifat,

Qizg‘aldoq enamdir,
Sim-sim-ey, sim-sim,

Mabodo aldasam, qo‘llarim sinsin.

Ortimda cho‘l dedim, ko‘rsam, Badaxshon,
Qadimiy tangaday behamyon, beshon.
O‘zimni izlasam – mendan yo‘q nishon,

Al-amon, men qayda,
Sim-sim-ey, sim-sim.

Mabodo aldasam, qo‘llarim sinsin.

So‘nggi dam o‘zim-la o‘chakishsam, hay,
Sohir ko‘zlaringdan talab etsam may,
E, voh, kekirdagim kesib etsam nay,

Puflasam – kuy yonsa,
Sim-sim-ey, sim-sim.

Mabodo aldasam, yuragim tinsin.

* * *

Moviylik qudug‘ida raqslar tugaganda,
Yolg‘izlik arqonini bo‘ynimga o‘raganda,
Kimdir Abduvalini ohista so‘raganda,
Qo‘shiqchi bo‘lsam edi, loaqal, bir sozanda.

Kaptarlarim, kaptarlar hay-u, ha-yu, hay-ula.

Barmoqlarimga bog‘lab quyoshni sudrasaydim,
Qorong‘u yerda yonib, kul bo‘lib titrasaydim,
Tutar paytimda nogoh, meni sen chorlaganda,
Qo‘shiqchi bo‘lsam edim, hech bo‘lmasa sozanda.

Kaptarlarim, kaptarlar hay-u, ha-yu, hay-ula.

Adadsiz manzillarim boumid oqqanida,
Qattiq tikanlarini qalbimga qoqqanida.
Tomirimni shimsam-u, hayotga bo‘lib banda,
Qo‘shiqchi bo‘lsam edi, hech bo‘lmasa sozanda.

Kaptarlarim, kaptarlar hay-u, ha-yu, hay-ula.

Xayolim oynasidan nedir uchib ketganda,
Sevgimni mo‘miyolab tushlar qochib ketganda.
Muhabbatim o‘zimdan so‘raganda rizolik,
Qo‘shiqchi bo‘lsam edi, hech bo‘lmasa sozanda.

Kaptarlarim, kaptarlar hay-u, ha-yu, hay-ula.

ZAMONDOSH



G‘IJJAKKA *jon ato etib...*

Maqomlar, xalq kuylari, milliy cholg‘ular va ustoz-shogird an’analari xalqimizning ma’naviy hayotini boyitib, milliy o‘zligini asrab kelmoqda. Bugungi kunda ana shu bebaho merosni zamon talablari asosida rivojlantirish, uning hayotbaxsh an’analarini davom ettirish yo‘lida fidokorona mehnat qilayotgan ijodkorlar orasida taniqli bastakor va sozanda, O‘zbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilovning o‘rni alohida e’tirofga loyiq. Bastakor yaratgan yuzlab musiqiy asarlarda o‘zbek musiqasining nafosati, milliy ruhi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ijodkorning eng muhim fazilatlaridan biri shundaki, u milliy va an’anaviy musiqamizning o‘ziga xos yo‘nalishini chuqur anglagan va zamonaviy talqinini yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Bu esa uning milliy musiqa tafakkurini boyitib kelayotganini ko‘rsatadi.

San’atkor qariyb yigirma yildan buyon respublika miqyosidagi davlat tadbirlarida musiqa rahbari sifatida samarali mehnat qilib kelmoqda. Mamlakatimizda o‘tkaziladigan bayram va tantanalar, madaniy-ma’rifiy tadbirlar va davlat ahamiyatiga ega yirik loyihalarning musiqiy bezagini yaratishda uning hissasi katta. O‘zbekiston xalq artisti, atoqli rejissyor Bahodir Yo‘ldoshevning: “Abduhoshim Ismoilov bo‘lmaganida, men Bahodir Yo‘ldoshev bo‘lib bayram sahnalarida o‘zimni ko‘rsata olmas edim”, degan e’tirofi ham bejiz aytilmagan, albatta.

Mas’uliyatli vazifalarni yuksak mahorat bilan uddalab kelayotgani, shuningdek, yosh iste’dodlarni tarbiyalash yo‘lidagi xizmatlari munosib qadrlanib, Abduhoshim Ismoilovga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni berildi.

O‘zbek musiqasi tarixi buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar ijodi bilan bog‘liq. Ular shakllantirgan ijrochilik maktablari bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Milliy musiqaning uzluksiz taraqqiyotida ustoz-shogird an’anasi muhim o‘rin tutadi. Abduhoshim Ismoilov ana shu an’analarni qadrlab, yosh ijodkorlarga o‘z tajribasini ulashib kelayotgan ustozlardan biri hisoblanadi.

Dutor, tanbur, g‘ijjak, chang, rubob, nay va doira kabi cholg‘ular xalqimizning asrlar davomida shakllangan musiqiy tafakkurini namoyon etadi. Bu cholg‘ularning har biri nafaqat o‘ziga xos ovozi, balki tarixi, yasalish uslubi va milliy bezaklari bilan ham qadrlidir. Ular xalqimizning ma’naviy hayotida muhim o‘rin egallab, milliy musiqaning avloddan avlodga yetkazilishida asosiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 2-iyunda “Madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Bu hujjat milliy san’atimizning barcha yo‘nalishlarini tizimli rivojlantirish, ijodkorlarning salohiyatini yuksaltirish va ustoz-shogird an’analarini mustahkamlashga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi. Jumladan, mamlakatimizda teatr, kino, maqom, milliy cholg‘u, folklor, opera va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha ijodiy birlashmalarni tashkil etish vazifasi belgilandi. Mazkur jarayonda “G‘ijjak cholg‘u ijrochiligi” yo‘nalishi bo‘yicha ijodiy birlashmaga rahbar etib Abduhoshim Ismoilovning tayinlanishi ham bejiz emas. Bu uning ko‘p yillik ijodi, milliy musiqa san’ati rivojiga qo‘shgan munosib hissasi, davlat tadbirlaridagi faoliyati va ustozlik maktabini yaratishdagi xizmatlarining samarasidir.

Ustoz san’atkor: “Maqomning vatani – O‘zbekiston. Biz o‘zimizning milliy maqom san’atimizni munosib darajada namoyon eta olishimiz zarur”, deya ko‘p ta’kidlaydi. Bu fikrlar uning haqiqiy vatanparvarligi, milliy maqom san’atiga bo‘lgan cheksiz muhabbati va uning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirish yo‘lidagi fidoyiligining yorqin ifodasidir. Zero, haqiqiy san’atkor uchun shaxsiy manfaatdan ko‘ra milliy madaniyatning sha’ni va nufuzi hamisha ustuvor.

Muzaffar SAYFULLAYEV,
“O‘zbekkonsert” davlat muassasasi
direktori o‘rinbosari

BU KITOBNI O‘QIDINGIZMI?



RUHIYAT HAYRATLARI

Ong osti, ruhiyat bilan bog‘liq asarlarni o‘qish alohida tayyorgarlikni taqozo etadi. So‘fiyona tasvirlar, obrazlar va ramzlarni reallikka o‘rgangan aqlning idrok etishi qiyin, agar so‘fiylik badiiyat bilan uyg‘unlashsa yoki badiiy asar so‘fiyona ishoralarga, hayratlarga qurilsa, mistisizm o‘quvchi xayollarini mavhum, ezoterika olamiga sudrab ketadi.



Viktor ALIMASOV,
falsafa fanlari doktori,
professor

Bu olamdan chiqib ketish oson emas, u ruhiyat hayratlari bo‘lib o‘y-xayollaringni ta’qib etaveradi. To‘g‘ri, badiiy ijod ruhiyatga yo‘naltirilishi bilan ilhom, to‘qima, fantaziya deb ataladigan sirli voqeliklar orqali mistisizmga yaqin turadi. Mistisizm, ayniqsa, badiiy ijodda, ruhiyat hayratlari bo‘lib qalbni, o‘y-xayolni, vujudni junbushga keltiradi. Daho ijodkorlarning barchasi yo so‘fiylik, yoki mistisizmga moyildir.

Taniqli adibimiz Nazar Eshonqulning “Giryon” asarini so‘fiylikdan, mistisizmdan xabardor bo‘lmagan oddiy o‘quvchi tushunishi mushkul. Asosiy voqealar Tarso va San’on atrofida ro‘y bersada, qahramonlarning tushlari, ularga yashiringan timsollar, bir-biriga ulanib ketgan sensitiv kechinmalar, reallikdan o‘zuvchi, ruhiyatni iztiroblarga soluvchi psixologik lavhalar, xullas, mavhum, ammo qiziqish qo‘zg‘ovchi tafsilotlar o‘quvchini bog‘lab oladi. Tarso shayx San’on yaxshi ko‘radigan nasroniy qiz. Bu ismlar asar g‘oyasiga ham, qahramonlarning hayot va borliq haqidagi tasavvurlariga ham mos tushgan. Muhabbat e’tiqod va aqidalar doirasini kengaytirishga qodir. Ammo adib Tarso va shayx San’on haqidagi so‘fiyona rivoyatni aynan davom ettirmaydi. Qahramonlarini ham, o‘quvchisini ham g‘ayrimantiqiy, tasodifiy voqealarga duch keltirish, aslida, yozuvchining badiiy uslubidir. Bu bilan u o‘quvchi qiziqishini oshiradi.

Adib asarini “eski afsonaning zamonaviy talqini”, deb ataydi. Aslida, u eski afsonalarning davomi. Asardagi barcha voqealar va ular negizidagi falsafiy-psixologik g‘oyalar Z.Freyd, K.Yung, G.Lebon, E.Fromm, K.Yaspers, V.Solovyev, N.Berdyayev kabilarning diniy-falsafiy va ijtimoiy-ekzistensial asarlarida muhokamaga qo‘yilgan. Nazar Eshonqul qahramonlari hayoti va sensitiv kechinmalarini ong osti, ruhiyat kabi tezda anglana bermaydigan, sersir va oddiy o‘quvchida turli savollar, e’tirozlar uyg‘otuvchi hodisalarga quradi. Natijada reallik va noreallik, yaxshilik va yomonlik, savob va gunoh, mehr va qahr, hayot va o‘lim haqida shunday falsafiy-badiiy tasvirlar, fikrlar paydo bo‘ladiki, so‘fiylik, ezoterizm va mistikadan oz-moz xabardor o‘quvchi o‘zbek adabiyotida nodir, psixologizmga boy, kishini borliq haqida o‘ylashga majbur qiladigan ijod namunasi yaratilganini sezadi.

Tush va uning taqdir, reallik bilan bog‘liq syujeti, Tarsoning alamlar to‘fonida yashashiga oid sabablar, tartib va udumlarga qarshi chiqqani, ukasi va otasidan o‘ch olmoqchi, o‘zini o‘zi o‘ldirmoqchi bo‘lgani kabilar psixotahlilda mavjud motivlardir. Ularning ba’zilarini Z.Freyd ehtiros nazariyasi bilan bog‘lagan, Nazar Eshonqul uni, chamasi, Sharqona etika nuqtayi nazaridan chetlab o‘tadi. Fikrimizcha, Tarsoning sevgan kishisini o‘ldirib, qotilga aylanishida nafaqat bedil, serqahr otasidan o‘ch olishi, shuningdek, adib chetlab o‘tgan ehtiros ta’siri ham bor. Qahramonlar o‘rtasidagi noutbukdagi yozishmalar ushbu ehtiros ta’sirini mana-mana ochib beradi deb turganda, adib asar syujetidan yiroqroq nay-odam, qishloqqa qayta-qayta kelish, kitob yakunidagi taktilli yo‘llar quruvchilar haqidagi hikoyalarni keltiradi. Ularga yozuvchi ma’lum bir mazmun yuklamoqchi bo‘lgandir, lekin o‘quvchi bu mazmun nimada ekanini topolmaydi. O‘rni keldi, yana bir e’tirozimni aytay. Tarso xatlarining qop-qora fonda berilishi maqbul bo‘lmagan. Yozuvlarni o‘qish qiyin, ular asarning asosiy g‘oyasi va mazmunini o‘zida mujassam etgani uchun ravon o‘qilishi zarur edi.

San’on, aslida, adib psixotahlilchi rolini o‘ynaydi, Tarso esa o‘z qismatini, o‘z hayotini o‘ynashga ahd qilgan. Qiz psixotahlilchi uchun qiziqarli taqdirga, o‘tmish va noodatiy tajribalarga ega mijoz. Adib – davolovchi, u qizga ruhiy iztiroblar berayotgan aql bilan ong o‘rtasidagi ziddiyatning boisini aniqlamoqchi. Uning nazarida, qizning “ruhi boshi berk ko‘chada adashib qolgan”, “ruhiy holati qandaydir bir gunoh yuki ta’qibida”. Qiz qalbi sevishga, kimningdir ardoqlashiga mushtoq. U sevib, iqror bo‘ladi: “Men uni rostdanam yaxshi ko‘raman. Judayam. Usiz yasholmayman, deb o‘ylayman... Uni ko‘rsam, shu paytgacha men uchun murakkab va ma’nisiz bo‘lib kelgan dunyo birdan soddalashardi, ma’ni bilan to‘lardi, go‘zallashardi”. Beorom qiz qalbi taskin topdi, deb o‘ylaysizmi? Ming afsuski, qiz yozganidek, “Menga bir umr gunohkorsan deb kelishgan. Gunohkor ekanligim uni sevishimga xalaqit berardi”. Gunohkorlik hissi bilan sevish mumkinmidi? N.Berdyayev fikriga ko‘ra, odam avval-boshdan gunoh bilan tug‘ilgan. Demak, sevgan ham gunohda, sevilgan ham; ikki gunohkorning bir-birini sevishida mantiqsizlik yo‘q. Mantiqsizlik – sevgan insoni qiyofasida sevmaydigan kishini ko‘rishda. Bu mantiqsizlik sertuyg‘u qahramonni fojialarga yetaklamay qo‘ymaydi.

“Biz teatrdagi qo‘g‘irchoqlarmizmi? – deydi Tarso. – Nega yashab yuribmiz?” Qahramonning ibtidoga murojaatidan psixotahlilchi “unda o‘zining dunyoga kelishi va bolaligi bilan bog‘liq muammolar bor”, degan xulosaga keladi. Bu muammolar shunchalik chuqur ediki, asarda ular izchil va mahorat bilan ishonarli ochib berilgan. Goho ular tafsillaridagi dostoyevskiy-cha ezmalikni kechirib yuborasiz, qahramonga ham achinasiz, ham undan nimanidir olgingiz, ruhiyatingizga singdirgingiz keladi. Psixotahlilchilar fikriga qo‘shilasiz: “ruhiyatni aql bilan tahlil qilib bo‘lmaydi”.

To‘g‘risini aytsam, ibtido bilan bog‘liq tafsilotlar diniy-falsafiy mohiyati bilan o‘quvchini o‘yga soladi, Tarso bolaligiga yopishmay turadi. Ular mutlaq boshqa muammo, ularning qiz taqdiriga daxli yo‘qdek. Biroq qiz ruhiyati va undagi tuyg‘ular oqimi sizni sudrab ketadi, ko‘z oldingizda sertuyg‘u, hatto psixotahlilchilar ham anglay olmaydigan hayotiy g‘avg‘olarga botgan inson obrazi paydo bo‘ladi. Uni bor ziddiyatlari bilan anglashga (tasvirlashga emas) adibning o‘zi ham ojizlik qiladi. Adib qiz ruhiyati ostonasida turib tasvirlaydi, demak, muammoning, ruhiyat hayratlarining davomi bor, adibni ham o‘yga soladigan savollar behad ko‘p. Shubhasiz, Tarsoning xabar-iqrorlari yozuvchi badiiy usulining maftunkorligini, ta’sirchanligini tasdiqlaydi. Ularda shiddat, aql-u idrokdan yuqori, mistikaga yaqin qandaydir kuch bor, ularni qabul qilgingiz, ishongingiz kelmaydi, lekin ular o‘y-ixtiyoringizni band etib, o‘jar da’vatlari bilan e’tirozlaringizdan ustun keladi. Sizda endi ishonmaslikka asos, kuch yo‘q.

Asar oxiridagi ikki voqea – Tarsoning tosh yumalatayotgan Sizif smayli yuborgani va rolini o‘ynayotgan pyesa muallifidan asarini boshqa hech bir teatr sahnalashtirmasligi uchun yoqib yuborishni talab qilgani e’tiborlidir. Ikkala voqea ham sirli, birinchisida – hayot bema’ni, ikkinchisida – umr betakror degan g‘oya jo. Odam ular orasida sarson yashashga mahkum etilgan.

Tarso taqdiri ustida adib rosa ter to‘kkan, uzundan uzun tafsilotlarni psixotahlil nuqtayi nazaridan qayta-qayta ishlagan, erinmagan, shoshmagan, ruhiyat o‘rasiga tushgach, undan insoniy idrok bilan kishilar davrasiga qaytish oson emasligini bilgan. Ushbu sirni badiiyatga tatbiq etish, qahramonlar ruhiy hayratlarini o‘quvchi kechinmalariga aylantirish mashaqqatli vazifa. Qahramonlarining ayanchli taqdiridan, aziyatli qismatidan yosh to‘kmagan adib topilmaydi, ammo o‘quvchini yosh to‘kish emas, ta’sirchan tasvir orqali hayotni sevishga, insonni ulug‘lashga ishontirish kerak. Nazar Eshonqul asarlarida bu maqsad bo‘rtib turadi. “Giryon” ham hayotni, insonni bor sirlari, turfa tuyg‘ulari bilan e’zozlashga chorlaydi. Ha, asarda ikir-chikirlar bilan o‘ralashib qolish, o‘y-xayolni o‘rtovchi injiqliklar uchraydi. Ammo ularda ruhiyat hayratlariga mahliyolik va ushbu mahliyolikka uyg‘un badiiy mahorat bor...

JAHON AYVONIDA

TELEGRAM SUDGA BERILADIMI?



Avstraliya Telegram messenjerini “terrorizmga moyil” materiallarni, jumladan, Kraystcherchdagi otishmalar videosini olib tashlamagani uchun sudga tortmoqchi. Bu haqda mamlakatning elektron xavfsizlik bo‘yicha komissari Juli Inman-Grantga tayanib “BBC” xabar berdi.

Ma’lum qilinishicha, Telegram “Onlayn xavfsizlik to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq xavfsizlik majburiyatlarini bajarmagani uchun 54,6 million Avstraliya dollari (38 million AQSH dollari) miqdorida jarimaga tortilishi mumkin. Bunga uning “yaqin tarixdagi eng mashhur ekstremistik zo‘ravonlik harakatlariga aloqador” kontentni ogohlantirishdan keyin ham olib tashlamagani sabab bo‘lmoqda.

SUN’IY INTELLEKT NARXI

Isroil G‘azodagi urush haqida sun’iy intellekt tizimlari beradigan javoblarni o‘zgartirish va o‘z foydasiga yo‘naltirish uchun 46,5 million dollar mablag‘ sarfladi. Bu haqda “Drop Site News” nashri hisobotiga tayanib “Anadolu” xabar berdi.



Hisobotga ko‘ra, AQSH prezidenti Donald Trampning sobiq saylov kampaniyasi rahbari Bred Parskeyl hamda uning “Clock Tower X” kompaniyasi Isroil hukumati bilan 46,5 million dollarlik shartnoma imzolagan. Ular Isroil targ‘ibotini ilgari surish hamda ChatGPT, Claude, Gemini va Perplexity kabi sun’iy intellekt platformalariga ta’sir o‘tkazish uchun veb-saytlar tarmog‘ini yaratgan.

QURUQLIKDAN BOSQIN



AQSH prezidenti Donald Tramp o‘z harbiylarining ogohlantirishlariga qaramay, Eronga qarshi quruqlikdan cheklangan hujum uyushtirish haqida buyruq berishi mumkin. Bu haqda Pokiston maxsus xizmatlari ma’lum qildi.

Islomoboddagi xavfsizlik manbalariga ko‘ra, ushbu xulosa hozirgi harbiy kuzatuvlarga asoslangan. Ekspertlar amerikalik harbiylarning Eronga bostirib kirishini juda xavfli deb hisoblamoqda. Chunki desant kuchlari raketa va dron hujumlariga duch kelishi tayin.

MAXFIY TUNNEL TOPILDI

Qirg‘izistonning Botken viloyatida O‘zbekiston bilan chegarada kontrabanda uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan yerosti tunneli topildi. Bu haqda 24.kg xabar berdi.

Ma’lum qilinishicha, Qirg‘iziston Ekstremizm va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash xizmati xodimlari chegara hududida tovarlarni noqonuniy olib o‘tish maqsadida tunnel qazilayotgani haqida ma’lumot olgan.

Tekshiruv davomida Qadamjoy tumanidagi “Chechelik” qishlog‘ining Mamajanov ko‘chasida joylashgan tashlandiq uylardan birida qo‘shni davlatga yo‘nalgan tunnel aniqlangan. Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, tunnelning chuqurligi qariyb 12 metr, eni esa 1,5 metrni tashkil etadi.



AHOLI KAMAYMOQDA

Yaponiyada aholi soni 42 yil ichida birinchi marta 120 milliondan pastga tushdi. Mamlakat fuqarolari soni joriy yil boshida 119,7 million kishini tashkil qilgan. Bu haqda “Mainichi” xabar berdi.



Ma’lumotlarga ko‘ra, joriy yil boshida mamlakatda yapon fuqarolari soni o‘tgan yilga nisbatan 917 ming kishiga kamaygan.

MENING FIKRIM

IMLO ESKIRMASIN

XX asrning boshlarida, jadid ma’rifatparvarlari faoliyat yuritgan davrda o‘lkamizda matbuot haqiqiy ma’nodagi milliy uyg‘onish minbariga aylangan edi. “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Inqilob quyoshi” kabi 50 dan ziyod gazeta va jurnallar o‘sha davr yozma madaniyatining asosi bo‘lgan eski arab alifbosida chop etilgan. Bu nashrlar millat tafakkurini uyg‘otish, ma’rifat tarqatish, til va madaniyatni saqlab qolish uchun kurash quroli edi.



Rahimboy JUMANIYOZOV, professor

Bugun biz jadidlarning publitsistik merosini o‘rganish, tahlil qilish va yosh avlodga yetkazish haqida ko‘p gapiramiz. Ammo savol tug‘iladi: o‘sha davr matbuotini asl nusxada, vositachisiz, tarjimon va transliterator ko‘zi bilan emas, bevosita o‘zi o‘qiy oladigan, tushuna oladigan jurnalist-tadqiqotchilarni qanday tayyorlayapmiz? Afsuski, bu savolga beradigan javobimiz ko‘ngildagidek emas.

Ma’lumki, Behbudiy, Munavvar qori, Avloniy, Fitrat kabi jadidlar o‘z davrining mohir publitsisti, jurnalisti ham edi. Ular gazeta va jurnal sahifalarida millat taqdiriga oid eng dolzarb masalalarni ko‘tarib chiqqan, ta’lim islohoti, ayollar huquqi, iqtisodiy taraqqiyot, milliy uyg‘onish haqida keskin va o‘tkir maqolalar e’lon qilgan. Bu meros nafaqat tarix yoki adabiyotshunoslik obyekti, u avvalo, jurnalistika fanining, milliy publitsistikaning bevosita tarixiy zaminidir.

Shu bois, XX asr boshidagi matbuotimizni chuqur o‘rganish masalasi jurnalistika sohasi vakillarining ham bevosita kasbiy vazifasidir. Zero, chin jurnalist o‘z kasbdoshlarining bir asr oldingi faoliyatini, ularning uslubi, mavzu tanlashi, jamiyat bilan muloqot usullarini to‘g‘ri tushunib, bugungi avlodga izohlab bera oladi.

Masalaning mohiyati oddiy: milliy jurnalistika tarixini, vaqtli matbuotning tarixdagi rolini chuqur va ilmiy asosda o‘rganmoqchi bo‘lgan har qanday tadqiqotchi, avvalo, o‘sha davr manbalari bilan bevosita ishlay olishi kerak. Biroq bugungi kunda jurnalistika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning mutlaq ko‘pchiligi mumtoz o‘zbek yozuvini, demak, XX asr boshidagi milliy matbuotimizning tilini o‘qiy olmaydi. Natijada nima yuz beryapti? Tadqiqotchi o‘z matbuoti tarixini yozish uchun ko‘pincha ikkinchi, uchinchi qo‘ldan – boshqa mualliflar tomonidan amalga oshirilgan transliteratsiyalar, tarjima va sharhlardan foydalanishga majbur bo‘ladi. Bu esa ilmiy tadqiqotning sifati va obyektivligiga jiddiy putur yetkazadi. Chunki har qanday vositachilik – xoh transliteratsiya, xoh tarjima bo‘lsin – ma’lum darajada talqin, ya’ni subyektiv yondashuvni o‘ziga singdiradi. Demak, muammo faqat “bir fan o‘qitilmayapti” degan texnik masalada emas. Bu – milliy jurnalistika tarixini o‘rganishning ilmiy asosiga, obyektivligi va teranligiga bevosita ta’sir qiluvchi tizimli muammodir.

Eski yozuvni bilish jurnalistning umumiy savodxonligi va kasbiy salohiyatini oshiradi. U ona tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, yozuv islohotlari jarayonini, millat boshidan kechirgan murakkab davrlarni chuqurroq anglaydi. Bunday jurnalist jamiyatda faqat xabar tarqatuvchi emas, balki milliy qadriyatlarning haqiqiy tashuvchisi va targ‘ibotchisiga aylanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda jurnalistika yo‘nalishida ta’lim beruvchi 20 ga yaqin oliy ta’lim muassasalari mavjud. Ularning o‘quv rejalarini ko‘zdan kechirsak, birortasida eski o‘zbek yozuvi



mustaqil, to‘liq hajmdagi fan sifatida o‘qitilmaydi. Ayrim joylarda bu mavzu umuman yo‘q, ayrim joylarda esa u boshqa bir fanning tarkibida, atigi bir-ikki ma’ruza hajmida, yuzaki tarzda “tegib o‘tiladi”, xolos.

Ba’zi muassasalarda eski yozuv tanlov fani sifatida taklif etiladi. Ya’ni, uni talaba



xohlasa tanlaydi, xohlamasa – yo‘q. Ammo milliy matbuot tarixi, jadidlar merosi, XX asr boshidagi publitsistikamiz ildizlari – bular tanlash mumkin bo‘lgan, ixtiyoriy mavzular emas. Bular har bir jurnalist uchun kasbiy zaruriyatdir. Tanlov fani sifatidagi yondashuvning o‘zi muammoning qanchalik jiddiy ekanini tushunmaslik, uni ikkinchi darajali deb baholashning natijasidir. Oqibatda jurnalistika fakultetini bitirgan aksariyat mutaxassislar na XX asr boshidagi milliy matbuotimizning asl manbalarini o‘qiy oladi, na tahlil qila oladi. Ular uchun “Sadoyi Turkiston”ning sahifalari begona, tushunarsiz belgilar majmuasidan boshqa narsa emas.

Amaliyotda kuzatilishicha, ayrim magistratura va ilmiy izlanish bosqichidagi tadqiqotchilar ham jadid matbuoti



mavzusida dissertatsiya yoki ilmiy maqola yozayotganda, eski yozuvdagi asl manbalar o‘rniga kirill yozuviga o‘girilgan to‘plamlardan foydalanish bilan cheklanadilar. Bu to‘plamlar, shubhasiz, qimmatli, ammo ular ham ma’lum darajada tahrir, tanlov va talqindan o‘tgan ikkilamchi manba hisoblanadi. Asl nusxa bilan tanishish salohiyati bo‘lmagani sababli, tadqiqotchi uni chetlab o‘tishga majbur bo‘ladi.

Bu muammoga yetarlicha e’tibor berilmasligi oqibatida milliy yozuv madaniyatining bir qatlami – deyarli bir asr davomida yaratilgan boy meros – amalda “mavhum meros”ga aylanib qolmoqda. U bor, ammo ko‘pchilik uchun yopiq, o‘qilmaydigan holatda saqlanmoqda. Bu esa milliy xotiraning uzilishiga olib keladi. Agar masalaga bugun e’tibor qaratilmasa, ertaga sohada malakali mutaxassis tayyorlaydigan ustozlar soni ham kamayib boraveradi. Chunki hozirgi kunda eski yozuvni biladigan va uni o‘qita oladigan pedagog kadrlar soni ham cheklangan va ular keksaymoqda.

Vaqt o‘tgan sayin asl manbalar bilan bevosita ishlay oladigan mutaxassislar soni yanada kamaya boradi, bu esa milliy matbuot tarixi bo‘yicha tadqiqotlarning sifat jihatdan pasayib ketish xavfini kuchaytiradi. Agar bugun bu zanjirni uzmasak, ertaga biz o‘z tariximizni o‘rganish uchun yana chetga – xorijlik sharqshunoslar yoki transliteratorlar tayyorlagan materiallarga tayanib qolishimiz mumkin.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 23-dekabr kuni ma’naviyat vakillari bilan uchrashuvda “Xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”, deya ta’kidlagani yodimizda. Shuning uchun ham bu masalaga beparvolik istiqbolimizga befarqlikdir.

Yuqorida ko‘tarilgan muammoning yechimi tizimli yondashuvni talab qiladi. Birinchidan, eski o‘zbek yozuvi jurnalistika yo‘nalishida tahsil olayotgan barcha guruhlar uchun mustaqil, alohida fan sifatida o‘quv rejasiga kiritilishi lozim. Ikkinchidan, mazkur fan faqat yozuvni o‘rgatish bilan cheklanmasligi, balki XX asr boshidagi milliy matbuot tarixi, jadid publitsistikasi, vaqtli matbuotning ijtimoiy-siyosiy roli bilan uzviy bog‘liq holda o‘qitilishi kerak. Ushbu fanni o‘qitish uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlash borasida alohida dastur ishlab chiqilishi, tegishli metodik qo‘llanmalar, o‘quv-uslubiy majmualar yaratilishi zarur.

Umuman olganda, eski arab yozuvini mustaqil va majburiy fan sifatida joriy etish keng qamrovli masala bo‘lib, nafaqat jadid matbuotini o‘rganish, balki mumtoz adabiyotimizdan bahramand bo‘lish imkoniyatini ham beradi.

MAVZUGA DOIR ESLATMA:

Tarix fani ma’lumotlariga ko‘ra, XX asr boshlari – taxminan 1905–1918-yillarda, jadid ma’rifatparvarlari davrida eski arab alifbosida quyidagi asosiy vaqtli matbuot nashrlari chop etilgan.

Toshkentda:

“Taraqqiy” – 1906-yil, muharriri Ismoil Obidiy
“Xurshid” – 1906-yil, muharriri Munavvar qori Abdurashidxonov
“Shuhrat” – 1907-yil, muharriri Abdulla Avloniy
“Osiyo” – 1908-yil, muharriri Ahmadjon Bektemirov
“Najot” – 1917-18-yillar, muharriri Munavvar qori
“Kengash” – 1917-18-yillar, muharrirlari Ahmad Zaki Validiy, Munavvar qori
“Turon” – 1917-18-yillar, muharrirlari M.Afandizoda, Abdulla Avloniy
“Ulug‘ Turkiston” – 1917-18-yillar, muharriri Kabir Bakirov
“Sho‘roi Islom” – 1917-18-yillar, muharriri Abdulla Battol
“Turk so‘zi” – 1917-18-yillar, muharriri Temirbek Xudoyorxonov
“Turk eli” – 1917-18-yillar.

Samarqandda:

“Samarqand” – 1913-yil, muharriri Mahmudxo‘ja Behbudiy
“Oyina” (jurnal) – 1913–1915-yillar, muharriri Behbudiy
“Hurriyat” – 1917-yil, muharrirlari Mardonqul Shohmuhammadzoda, Akobir Shomansurov, Abdurauf Fitrat

Farg‘ona vodiysida (Qo‘qon, Marg‘ilon):

“Sadoyi Farg‘ona” – 1914-yil, muharriri Obidjon Mahmudov
“Tirik so‘z” – muharriri Obidjon Mahmudov
“El bayrog‘i” – muharriri Bo‘lat Soliyev

Toshkent / umum Turkiston miqyosida:

“Sadoyi Turkiston” – 1914-yil, muharriri Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘ja o‘g‘li
“Al-isloh” (jurnal) – 1915–1918-yillar.

Xorazmda:

“Inqilob quyoshi” – 1920-yil.

Tadqiqotchi professor Hamidullo Boltaboyev ma’lumotlariga ko‘ra, 1910–1920-yillarda Turkiston matbuotida umuman 300 dan ortiq vaqtli nashr faoliyat yuritgan, ammo barchasi uzoq umr ko‘rmagan – ko‘pchiligi bir necha oydan bir-ikki yilgacha chiqqan, chunki chor va keyinroq sovet senzurasi ularni tez-tez ta’qiqlab turgan. Har bir nashrning aniq necha soni chiqqani bo‘yicha to‘liq jamlangan rasmiy statistika hozircha keng ommaga ochiq manbalarda mavjud emas – bu ma’lumotlar ko‘proq Ziyo Saidning “O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870–1927)” asari va O‘zbekiston Milliy kutubxonasi fondidagi arxiv kataloglarida saqlangan.

TARIX VA TAQDIR



“OSMONDAN TUSHGAN” ISMLAR

Dinimizda “Farzandlaringizga go‘zal ism qo‘yinglar”, deb buyurilgan. Insonlarga qo‘yiladigan ismlar vaqt va zamonlarga moslashuvchanligi ham bor. Yaqin-yaqinlargacha keksa yoshdagi kishilar ismlariga ajablanib qarardik. Qo‘chqor, Qo‘ziboy, Bo‘riboy, Ketmonboy, Dehqonboy, Ulbo‘lsin, Oypo‘pik, Jumabika... kabi ko‘plab turkiy ismlarning ham o‘z tarixi, sabablari bor. Yoki Xorazmda katta avlod vakillariga qo‘yilgan Qozoq, Turkman, Yovmut kabi ismlar zamirida xalqimizning ko‘p asrlik hayoti, turmush tarzi, birodar millatlarga hurmati aks etgan. Bu misollarda qadim qadriyatlar, an’ana va odatlar alomatlari mavjud.

Buni to‘g‘ri qabul qilish kerak. Negaki, bunda ixtiyoriylik mujassam. Yoki farzandlariga futbol ishqibozi bo‘lgan otalar qo‘ygan Maradona, Ronaldino, turli kino qahramonlariga taassub qilib atalgan Osiola, Van Dam, Chingachguk kabi ismlarni “zamonalashuv rusumi” sifatida qabul qilamiz. Ammo... Antiqa ismlar qo‘yilishi ortida majburiylik ham bo‘lganki, mavzumiz shu haqida.

Ba’zan davralarda: “Sizlarda sovetlar davrida “dohiy”lar ismini farzandlariga qo‘yish boshqa viloyatlarda qaraganda nega keng tarqalgan?” – deb so‘rab qolishadi. Hatto ayrimlar buni sovet tuzumiga sadoqat belgisi va maddohlikka ham yo‘yishadi. Og‘riqli savol, kishini o‘ylantiradigan, mulohazaga chorlaydigan mavzu. Buning ortida ommaviy ongsizlik yotibdimi yoki yolg‘onlarga ishonish kuchliroqmi? Balki, boshqa sabablari bordir?

Esingizdami, o‘tgan asrning ikkinchi yarmida “Osiyo ustida bo‘ron” filmi oynayi jahonda ko‘p namoyish qilinardi. Film sovetlar “zulm va adolatsizlik o‘chog‘i”, “mehnatkashlarni ekspluatsiya qilgan yovvoyi feodal tuzumlar” – xonliklarni ag‘darib, o‘rniga “dunyodagi eng adolatli”, “ishchi-dehqon birdamligi” o‘rnatgani borasidagi yolg‘on mafkuraning ekranlarga ko‘chgan nusxasi edi. Filmda bosh qahramon asrab olgan yetim bolaga sovetlar dohiysi nomini (aslida, partiyaviy laqabini) qo‘yishni so‘rab, Moskvaga shoshilinchnoma yuborgan va uning javobini kutib, aloqa bo‘limidan bir necha bor xabar olgan sahnalar bor. Filmga atay kiritilgan bu ko‘rinishlar yakunda kutilgan xabarnoma kelgani bilan yakunlanadi. Bundan sovet siyosatchilari nomlarini ommaviy qo‘yish targ‘iboti ham olib borilgan, degan xulosaga kelish mumkin. Ayni shu targ‘ibot samarasi o‘laroq, Mels (sovetlarning to‘rt dohiysi: Marks, Engels, Lenin, Stalin ismlari bosh harflari yig‘indisi) yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri Leninza, Stalina, Marks kabi ismlar ko‘p qo‘yilgan. Ammo, lekin tanganing ikkinchi tomoni borligini ham unutmaylik!

O‘tgan asrning 37-yili sovetlar o‘tkazgan “katta terror”ga tayyorgarlik, aslida, ancha oldinroq boshlangan. Birgina voqeani eslatib ketamiz: 1932-yili O‘zbekiston SSR Oliy sudining raisi qamoqqa olinishi ortidan “qosimovchilik” jarayoni boshlangan. Shundan so‘ng tizimda ishlayotgan katta-kichik rahbarlar ommaviy tarzda qatag‘onga uchragan – ho‘l-u quruq barobar yongan. Shajarasi mashhur tasavvuf pirlaridan Abduqodir Giloniyga borib taqaladigan, tarix taqozosi bilan vohani vatan tutgan, otasi xonlik zamonida G‘azovot bekligi hokimi bo‘lgan Abduqodir Asqarov o‘sha mash’um yillarda avval Xonqa tumani prokurori, so‘ng viloyat sudi sudyasi bo‘lib ishlagan. Hamkasblari birin-ketin qamoqqa olinayotganini ko‘rgan, voyaga yetmagan bir etak bolalari taqdirini o‘ylagan Abduqodir Asqarov 1934-yilning qishida dunyoga kelgan qiziga Leninza ismini qo‘yadi. Sayyidzoda inson sovetlarning dinsiz dohiysi ismini farzandiga qo‘yishi ilojsizlikdan – “Shoyad shu tufayli qamalmay qolsam, oilam parokanda bo‘lib ketmasa”, degan ilinj sababli edi.

Afsuski, hali beshikda yotgan, o‘ziga qanday ism taqalganidan bexabar qizaloq uch yildan so‘ng yarim tunda xaroba kulbalari eshigini taqillatib kirib kelgan odamdan o‘zini olib qochadi, onasi va akalari tinmay bag‘riga bosayotgan “notanish kishi”ga yovqarash qilib turadi. Keyinchalik esi kirgach, otasi qatag‘onga uchrab uch yil qamoqda yotganini biladi. Nohaq qatag‘on jabrini tortish otasi qismatiga baribir yozilgan ekan.

Mudhish davrlarda otasi majburan begona ism qo‘ygan qiz vaqti kelib turli mas’ul vazifalarda ishlaydi, voha tarixida ilk bor (va hamon yagona) viloyat markazining birinchi rahbari darajasiga ko‘tariladi, uzoq yillar viloyat kasb-hunar boshqarmasi boshlig‘i sifatida minglab yoshlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida yordam beradi.

Onaxon bugun 92 yoshda. Haliyam tetik, faol, turli tadbirlarda yoshlarga mustaqilligimiz bergan eng aziz ne’matlar haqida gurung berishdan charchamaydi. Otasi nohaq qamalgan davrda onasi bir etak bolalari bilan yaqinlari xonadonlarida jon saqlashgani, otasi qamoqdan qaytgach, sud-huquq tizimiga yaqinlashtirilmasdan xo‘jalik ishlariga jalb qilingani sababli, bolaligi, o‘quvchilik davri bir emas uchta tumanda kechgani, otasi peshonasiga urilgan “xalq dushmani” tamg‘asi bir umr farzandlarini ham ta’qib qilgani, shahar rahbarligidan bo‘shatilishi ortida ham shu “ishonchsiz kadr” maqomi turgani, bugun viloyat ahli hurmat bilan hoji ona deb e’zozlashi sababini istiqlol sharofatidan deb bilishi haqida so‘zlaydi.

Mustaqillikdan keyin Xorazm viloyatining birinchi hokimi bo‘lib ishlagan rahmatli Marks aka Jumaniyozov “Esimda qolgan onlar” xotira kitobida o‘ziga qo‘yilgan ism tarixini ham aynan qatag‘on bilan bog‘lagan. Otasi Jumaniyoz aka kolxozda oddiy brigadir bo‘lgan. 1937-yil qatag‘oni u kishining ko‘plab hamkasblari, tanishlarini o‘z domiga tortib ketgan. Har kuni radiodan “Xalq dushmanlariga o‘lim!”, “Troskiychi-zinovyevchi xoinlarga shafqat bo‘lmasligi kerak!” kabi shiorlar yangrab turgan zamonda dunyoga kelgan o‘g‘liga qishloq soveti raisi taklifi bilan kommunistlar dohiysi ismini qo‘ygan. Balki taqdirdir, balki ayni shu ism boisdir, qamalmay qolgan.

Jadid harakatiga qo‘shilib, istibdoddagi elni ma’rifat nuri bilan bahramand qilishni orzu etgan, shu yo‘lda mubham davr va siyosat to‘siqlariga necha bora boshlari urilgan ziyolilar o‘z hayotlarini ihota qilish uchun zamonasozlik yo‘lini tutishga majbur bo‘lganini ham bilamiz. Xorazmda jadid harakati ta’sirida kurash maydoniga chiqqan Qurbon Beregin yoki Qosim Sorokin kabi ziyolilar o‘zlariga o‘zga zabonli sharif tanlashlari ortida ham majburiylik yotibdi. Afsuski, “beregi” – “saqla” so‘zini sharif qilib olgan inson hayoti sovet zindonlarida yakun topgan.

Bizga yot ismlar siyosat tufayli majburiy qo‘yilganini tushunish mumkin. Ammo sovet davrida soxta tarix ongiga quyilgan, yolg‘onlarga ishongan ayrim ota-onalar farzandlariga Frunze, Marks kabi ismlarni tanlagani achinarli. Bu kabi ismlar ko‘proq sovet davrida mas’ul vazifalarda ishlagan, o‘zini “chin kommunist” sanagan shaxslar tomonidan farzandlariga qo‘yilgani ortida esa manfaat yotgani sir emas.

Yana bir achinarli hol: o‘tgan asrning 70-80-yillari qishlog‘imiz mahkamasida kotib vazifasida ishlagan rus tili muallimi o‘z tanishlari, yaqinlari farzand ko‘rganida, ularning “tug‘ilish shahodatnoma”lariga Vladimir, Nikolay kabi ismlarni yoppasiga yozavergan. Nega bu ismlarni beruxsat yozdingiz, deb e’tiroz bildirganlarga, “Tepadan shunday topshiriq keldi! Nima, siz davlat siyosatiga qarshimisiz? Proletariat dohiysi ismini yomon ko‘rasizmi?” – deb qo‘rqitgan. Noiloj qolgan ota-onalar farzandlarini oila davrasida o‘zlari tanlagan boshqa ism bilan chaqirishgan, hujjatidagi ism bilan faqat sinfdoshlari atagan. Majburiy-ixtiyoriy ikki ismga ega bo‘lgan bu insonlar mustaqillik davrida o‘z ismlaridan uyalishdi, ayrimlari ismlarini rasman o‘zgartirdi.

Nima deymiz, salkam sakson yil davr surgan sovetlar nafaqat qadim qadriyatlarimiz, tilimiz, dinimiz, yozuvimiz, balki ismimizga ham o‘chmas jarohatlar qadab ketdi...

Ro‘zimboy HASAN

HISOBCHIGA HISOBSIZ JAZO

Boshlanishi 1-sahifada.


U mehnat faoliyatini 1923-yili Izboskan tumanida o‘qituvchilikdan boshlagan. Hujjatlarda uning mashhur taraqqiyparvar Orziqul To‘raqulov bilan bir vaqtda turli maktablarda pedagogik faoliyat olib borgani qayd etilgan. Sovet hokimiyati tomonidan jadidlarga tazyiqlar kuchaytirilgach, “yoshlar ongini yot g‘oyalar bilan zaharlash”da ayblanib, ta’lim tizimidan chetlatilgan. 1933-yili “Milliy ittihod” tashkilotining Andijon sho‘basi faol a’zosi sifatida yana hibsga olingan. 1935-yili hibsdan ozod qilinib, Izboskan tumani Moygir qishlog‘iga qaytib kelgan. “Qizil Yulduz” kolxozi hisobchisi vazifasida ishlab, takroran qamoqqa olingunga qadar o‘sha yerda faoliyatini davom ettirgan.

1937-yil 9-avgustda O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi Razvedka va tergov boshqarmasining 4-bo‘limi tezkor vakili, davlat xavfsizligi serjanti Derevyanenko tomonidan Mamarasul Rasulovga oid materiallar ko‘rib chiqilib, jinoyat ishi qo‘zg‘atiladi. 1937-yil 9-avgust kuni 27-raqam bilan qayd etilgan order asosida ayblanuvchining uyida tintuv o‘tkaziladi.

Hibsxonadagi dastlabki so‘roqlardanoq tergovning qay yo‘sinda olib borilgani ko‘rinadi. U yerda haq qaror topishi emas, har qanday voqea va so‘zdan siyosiy qusur izlash odat edi. Ba’zan buning uchun eng oddiy hayotiy holat ham kifoya qilardi. Masalan, Akmal Ikromov ishtirok etgan tadbirga kirish uchun mandat berilmagani haqidagi oddiy norozilik bir necha marta so‘roq mavzusiga aylantiriladi. Mamarasul Rasulov “nutqni tinglashdan boshqa hech qanday maqsadim bo‘lmagan”, deb qayta-qayta ta’kidlashiga qaramay, bu izoh “ayblov dalili”ga aylantiriladi.

Ushbu ish doirasida bir necha guvoh va ayblanuvchilar tergov qilingan. Tergov ishiga doir chaquv xatida quyidagi ma’lumotlar keltiriladi: “Men kolxoz boshqaruvi idorasida Mamatxoliqov, Ibrohim Norinboyev, Shodmon Nazarov va Mamarasul Rasulov bilan birga edim. Aniq sana esimda yo‘q, biroq o‘sha paytda hammamiz ishlab o‘tirganimizda, “Qizil O‘zbekiston” gazetasida F.Xo‘jayevning lavozimidan ozod etilgani haqidagi xabar e’lon qilindi. Shunda Rasulov yig‘ilganlarga qarab shunday dedi: *“F.Xo‘jayevni ishdan bo‘shatish xato bo‘ldi. U biz uchun ko‘p yaxshilik qilgan. Uni aksilinqilobiy harakatlarda ayblashmoqda. Sho‘ro tuzumi uchun qancha ishlasang ham, baribir, yomon bo‘lib qolasan. F.Xo‘jayevni ham bekorga ayblashlari mumkin. Uni o‘zini otib o‘ldirgan ukasining qabri ustiga lotin yozuvida emas, eski arab yozuvimizda xat yozdirganlikda ayblashadi, xolos. Shuning uchun uni millatchilikda ayblashmoqda”. Rasulovning ushbu gaplaridan keyin men ham, u yerda hozir bo‘lgan boshqa shaxslar ham hech narsa demadik”.*

Rasulovga nisbatan “bosmachilik” harakati bilan hamkorlik aybi ham qo‘yilgan hamda mazkur ayblovlarni tasdiqlash maqsadida bir qancha “chaquv” xatlari asos qilib olingan. Tergov materiallariga ko‘ra, 1923-yili Andijondagi maktabda ishlayotgan vaqtida u milliy istiqlol harakati a’zolari tomonidan safarbar qilingan. Qozoq qo‘rboshisi uni Farg‘ona yaqinidagi G‘orcha qishlog‘ida bo‘lgan Shermuhammad (hujjatlarda Shermat deb berilgan) qo‘rboshi huzuriga yuborgan. Shermuhammad qo‘rboshi esa uni, yana 80 kishi bilan birga, Afg‘onistonning Xonobod shahriga jo‘natgan. U yerda ular Afg‘oniston harbiy vaziri Muhammad Nodirxon qabulida bo‘lgan. Shundan so‘ng barchasi qo‘mondonlik shtablari uchun kadrlar tayyorlash maqsadida tashkil etilgan uch oylik harbiy tayyorgarlik kurslarida qatnashgan. Kurs yakunlangach, ular Qizil Armiyaga qarshi kurashish uchun O‘zbekistonga yuborilishi kerak bo‘lgan.



Mamarasul Rasulov o‘z ko‘rsatmalarida Afg‘onistondagi tayyorgarlikni tugatgach, 40 kun davomida Sharqiy Buxoroda Qizil Armiya qismlariga qarshi janglarda ishtirok etgani, 1923-yil iyul oyida esa Andijonga qaytganini ta’kidlaydi. Buni u Anvar Posho halok bo‘lganidan keyin Sharqiy Buxoroda sovet qo‘shinlarining ustunlikka erisha boshlagani bilan izohlaydi.

Mamarasul Rasulovga nisbatan yuritilgan tergov ishida asosiy qaror va guvohlar ko‘rsatmalaridan tashqari, Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan yig‘ilgan qo‘shimcha ma’lumotlar ham ayblov ishiga ilova qilingan. Tergov hujjatlarida bu ma’lumotlar turli maxfiy axborot beruvchilar, agentlar va chaqimchilar tomonidan yetkazilgani qayd etiladi. Shu asosda 1936-yil 20-iyulda “Madaniyat xodimi” taxallusi bilan tayyorlangan memorandum ish materiallariga kiritilgan. Uning birinchi qismida Mamarasul Rasulov “Qizil Yulduz” kolxozining hisobchisi sifatida tavsiflanadi. Hujjatda u o‘zbek (ayrim joylarda o‘zbek/tojik deb ham ko‘rsatilgan), Andijon tumani Tolmazor qishlog‘ida tug‘ilgan, ziyoli shaxs hamda inqilobning dastlabki yillarida “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi bo‘lgani haqida da’vo keltiriladi.

Tergov materiallarida 1936-yil 8-aprel kuni kolxozning umumiy yig‘ilishida xotin-qizlarning paranji tashlashi va ayollar ozodligi masalasi muhokama qilingani qayd etiladi. Memorandumda yozilishicha, Rasulov yig‘ilish davomida kolxoz raisi zaxirada saqlanayotgan 8000 kilogramm sholini sotib, uning hisobiga ot sotib olmoqchi ekanini ma’lum qilgan. Bu esa kolxozchilar o‘rtasida shov-shuvga sabab bo‘lib, yig‘ilishning asosiy mavzusi hisoblangan ayollarning yuzini ochish masalasi ikkinchi darajaga tushib qolgani qayd etilgan.

E’tiborlisi, memorandum muallifi ayni shu holatni Rasulovga qarshi ayblov sifatida keltiradi. Holbuki, yig‘ilishda kolxoz mulkidan foydalanish masalasining muhokama qilinishi tabiiy hol edi. Biroq o‘sha yillarda xotin-qizlarni ozod qilish siyosati partiyaning muhim mafkuraviy vazifalaridan biri hisoblangani bois, uning muhokamasini boshqa masalaga burib yuborish siyosiy nuqson sifatida baholangan. Shu sababli, oddiy xo‘jalik masalasi yuzasidan bildirilgan munosabat ham keyinchalik Rasulovga qarshi ayblovlar qatoriga kiritilgan.

Memorandumning keyingi qismi tergovchilar e’tiborini Rasulovning mahalliy rahbarlar bilan munosabatlariga qaratadi. Hujjatda uning qishloq rahbarlaridan biri bilan kelishmovchilikka borgani, bu nizo ortidan mazkur shaxsning lavozimidan ozod etilgani qayd etiladi. Shundan so‘ng, memorandum muallifi go‘yo avvalgi holatlarni tasdiqlovchi dalil sifatida 1935-yilga oid yana bir ayblovni keltiradi. Unda Rasulov kolxoz hisobchisi bo‘lib ishlagan davrida daromadlarni taqsimlash paytida 10 ming so‘m mablag‘ni o‘zlashtirishga uringani, ammo bu harakat vaqtida fosh etilgani iddao qilinadi.

Bu ayblovlarning eng e’tiborli tomoni ularning manbasida namoyon bo‘ladi. Tergov materiallariga ko‘ra, mazkur ma’lumotlar “Payza” taxallusi bilan faoliyat yuritgan maxfiy axborot beruvchidan olingan. Demak, Rasulovga qarshi shakllantirilgan tasavvurning muhim qismi bevosita hujjatlar yoki sud qarorlariga emas, balki yashirin axborotchilarning xabarlariga tayangan. Qatag‘on yillarida ana shunday xabarlar ko‘pincha haqiqatni aniqlash vositasi emas, balki avvaldan shakllantirilgan gumonni mustahkamlashga xizmat qilgan.


Tergov hujjatlarida Mamarasul Rasulov ta’lim olgan muhit ham siyosiy nuqtai nazardan baholangan. Unda Birinchi jahon urushi tugaganidan keyin turk zobitlari Turkiston yoshlari orasida panturkchilik g‘oyalarni tarqatish maqsadida turli maktab va kurslar tashkil etgani, Rasulov esa 1918-yilda millioner Mirkomil Mirmo‘minboyev tashabbusi bilan Andijonda ochilgan olti oylik o‘qituvchilar kursida tahsil olgani qayd etilgan. Tergovchilar mazkur kurslarga turk harbiy zobitlari rahbarlik qilgani va kurs o‘qituvchilari orasida Usmonxon Eshonxo‘jayev, Husaynxon Niyoziy, Husayn Husni Afandi hamda Mutin Afandi kabi shaxslar faoliyat yuritganini ta’kidlab, bu holatni ham ayblovni kuchaytirishga xizmat qiluvchi dalil sifatida talqin qilgan. Ayblov materiallarining keyingi qismida qahramonimizning Anvar Posho qo‘shinlari tarqab ketganidan keyin Farg‘onaga qaytgani, ma’lum vaqt Toshkentda Muhammadjon domlaning uyida yashiringani, keyin hibsga olinib, jazo o‘tagani haqida ma’lumotlar keltirilgan. Hujjatlarda jazo muddati tugagach, u Toshkentdagi maktablardan biriga o‘qituvchi bo‘lib ishga kirgani, ammo yoshlar ongiga zararli g‘oyalarni singdirishi mumkin, degan iddao bilan shahar maorif bo‘limi tomonidan ishdan bo‘shatilgani qayd etilgan.

Tergov organlari Mamarasul Rasulovning shaxsiy aloqalari haqida ham ma’lumotlar to‘plagan. Ularda 1929-yilda qatag‘on qilingan Andijondagi “Milliy ittihod” tashkiloti a’zolari va tashkilotchilari Abdulla hoji G‘ofurov, Ubaydulla eshon Sulaymonqulov, Sayfi Kamolov, Abdumutallib Karimov, Shermat qori Ashurov hamda Abdusattorov bilan muntazam aloqada bo‘lgani haqida da’volar keltirilgan. 1936-yili Toshkentga kelganida “Milliy ittihod”ning faol a’zosi sifatida ko‘rsatilgan Muhammadjon domla bilan bir necha marta uchrashgani ham ayblovga asos qilib olingan.

Mamarasul Rasulovga “Uchlik” tomonidan 1937-yil 29-avgustda eng og‘ir jazo – otuv hukmi chiqarilgan, unga tegishli mol-mulklarni musodara qilish belgilab qo‘yilgan. Shu tariqa yana bir vatandoshimiz navqiron 37 yoshida sovetlarning jirkanch qatag‘on siyosatining qurboni bo‘lgan...

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

AZIZ XOTIRA



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Mulla Qambar Sodiqov – 1879-yili Andijonda tavallud topgan. “Sho‘royi Islom” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. 1930-yilda kolxozlashtirishga qarshi harakatning faol ishtirokchisi. Aholi orasida mag‘lubiyatchilik kayfiyatidagi targ‘ibot olib borganlikda, burjua davlatini maqtaganlikda ayblangan. O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandiga asoslanib, 1937-yil 21-noyabrda 8 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. 1989-yil 10-iyulda oqlangan.

Vadim Chaykin – 1886-yili Kursk guberniyasi Slonovsk volostida tug‘ilgan. Jurnalist bo‘lib ishlagan. 1916-yili Andijonga kelgan. Jadid ma’rifatparvarlari bilan yelkama-yelka turib, Rossiya va uning mustamlakachiligiga, so‘ngra mustabid sovet tuzumiga qarshi kurash olib borgan. “Taraqqiyparvarlar” jamiyatining faol a’zosi bo‘lgan. Ijtimoiy-siyosiy faoliyati sovet hokimiyati jazo idoralari tomonidan doimiy tazyiq, ta’qib, quvg‘inga uchragan.

1933-yili 21-fevralda Toshkent shahridagi Novaya ko‘chasi, 9-uyda hibsga olingan. 15-martda kafillik bilan ozodlikka chiqarilgan. Biroq OGPU kollegiyasi huzuridagi maxsus kengash 4-oktyabrda OGPU orqali Qozog‘istonga 3 yil muddatga surgun qilgan. Surgundan qaytgach, 1941-yil 8-sentyabrda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi RSFSR Jinoyat kodeksi 2-bob 10-moddasi bilan otuvga hukm qilingan.

Mannon Ramziy Abdullayevich – 1895-yili Samarqand shahrida tug‘ilgan. O‘zSSR Maorif xalq komissari sifatida faoliyat yuritgan. 1930-yili OGPU tomonidan hibsga olingan. “Milliy istiqlol” tashkilotining yetakchilaridan. Botu, Oltoy va boshqalar bilan sovet hukumatiga qarshi kurash olib borganlikda ayblangan va 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

Abdug‘affor Abduraimxo‘jayev – 1871-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. “Sho‘royi Islom” tashkiloti a’zosi bo‘lganlikda ayblanib, 1921-yili 3 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Aholi orasida mag‘lubiyatchilik kayfiyatidagi aksilinqilobiy targ‘ibot olib borgani uchun O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi “uchligi”ning 1937-yil 16-noyabrdagi yig‘ilishida 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan.

Qodirxo‘ja Vahobov – 1898-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Eski shaharda yangi usuldagi jadid maktabida ta’lim olgan. Avval besh oylik savodsizlikni tugatish kursida, 1923-1924-yillarda to‘rt oylik aloqa-telegraf kursida ham tahsil olgan. O‘qituvchilik qilgan.

1925–1927-yillarda Toshkentda kooperativ mudiri, 1928–1931-yillarda fabrika ishchisi, keyinroq fabrika direktori o‘rinbosari, poyabzal fabrikasi ishchilar ta’minoti bo‘yicha direktor o‘rinbosari, 1933-yilda direktor, 1936-yil 5-dekabrdan Toshkent shahar Stalin rayoni ijroiya komiteti raisi lavozimlarida ishlagan.

Rus, tatar va qozoq tillarini mukammal bilgan. 1938-yil 14-oktyabrda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasida 15 nafar mahbus ishi ko‘rib chiqilgan va qayta tergov qilish to‘g‘risida qaror qabul qilingan. Ulardan biri Qodirxo‘ja Vahobov bo‘lgan, yurtdoshimizning keyingi taqdiri noma’lum.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).

MUHIM MANBA

Sahifalardagi saboqlar

Tarix – xalqning o‘tmishi, buguni va ertasi o‘rtasidagi mustahkam ko‘prik. Tarixini teran anglagan millatgina kelajagini ishonch bilan barpo etadi. Shu ma’noda, arxeolog, tarixshunos va publitsist Amriddin Berdimurodovning “Sahifalarga sochilgan saboqlar” kitobi shunchaki ma’lumotlar jamlanmasi yoki tarixiy sana, hodisalar sharhidan iborat emas. Unda tarixni xalqning muqaddas xotirasi deb e’zozlovchi, butun umr osori-atiqalar, qadimiy yodgorliklarni izlab topish, uni asrab-avaylashga jahd qilgan arxeolog yozuvchining boshdan kechirganlari, milliy arxeologiyamizning yo‘qotish va evrilishlari haqida so‘z boradi.



Kitob Yer yuzining sayqali, ko‘hna va navqiron Samarqand shahrining uch ming yilligiga bag‘ishlanib, shonli tariximizning turli davrlarini yoritishga, sobiq Ittifoq paytida yurtimizdan olib ketilgan noyob topilmalar va ularni muzeylarimizga qaytarishga oid esse, suhbat, publitsistik maqolalardan tashkil topgan. Asarning o‘ziga xosligi – tarixiy voqealar quruq fakt sifatida emas, balki hayotiy mushohada va chuqur tahlil bilan yoritiladi. Tarixning bugungi taraqqiyotimizdagi o‘rni haqida muhim fikrlar ilgari suriladi.

Asar besh bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limda istiqlol g‘oyasi, milliy meros, Temuriylar Renessansi, milliy g‘urur va tarixiy xotira masalalari tahlil qilingan. Keyingi bo‘limdan qadimgi Turon, Iskandar Makedonskiy, Chingizxon davri, Buyuk Ipak yo‘li, qadimiy shaharlar tarixi haqidagi qiziqarli mulohazalar o‘rin olgan. Muallif tarixiy manbalarni arxeologik dalillar bilan uyg‘unlashtirib, o‘quvchiga yaxshi tanish bo‘lgan ayrim qarashlarga yangicha nigoh tashlaydi.

Kitobning uchinchi bo‘limi Amir Temur va temuriylar davriga bag‘ishlangani bilan alohida ahamiyatga ega. Unda Sohibqironning davlatchilik siyosati, bunyodkorlik faoliyati, ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, Robiya Sultonbegim singari tarixda munosib o‘rin tutgan ayollar taqdiriga bag‘ishlangan maqolalar kitob mazmunini yanada boyitgan. Muallif tarixiy shaxslarni ortiqcha madh etmasdan, ularning faoliyatini ilmiy manbalar va dalillar asosida tahlil qiladi. So‘nggi bo‘limlarda turli mavzularga bag‘ishlangan publitsistik maqolalar jamlangan. Ularda nafaqat tarix, balki san’at, madaniyat, ma’naviyat, milliy qadriyatlar, arxeologik kashfiyotlar va zamonaviy taraqqiyot masalalari ham qamrab olingan.

Kitob tili sodda, ravon va ta’sirchan. Ilmiy ma’lumotlar badiiy mushohadalar bilan uyg‘unlashganki, kitobxon aslo zerikmaydi. Asarning yana bir ta’sirli jihati, unda ma’naviy jasorat, vatanparvarlik ruhi kuchli. Bu tuyg‘u tarixiy haqiqat, ilmiy dalil va hayotiy misollar vositasida ifoda etilgan. Muallif o‘quvchini o‘tmish bilan faxrlanishga chaqirish bilan birga, o‘z tarixini bilish va undan to‘g‘ri xulosa chiqarish zarurligini ham uqtiradi.

Arxeolog 1991-yil 8-yanvarda “Yosh leninchi” gazetasida chop etilgan maqolasida: “Agar biz O‘zbekiston atalmish tabarruk zaminda ozod, rivojlangan, har tomonlama mukammal davlat qurishni niyat qilgan bo‘lsak, o‘tmishimiz va kelajagimizga ham o‘zimiz egalik qilishimiz kerak”, deydi. Eng muhimi, u o‘quvchida o‘tmishga nisbatan hurmat, milliy g‘urur va kelajak uchun mas’uliyat tuyg‘usini shakllantiradi.

Millat xotirasiga ehtirom, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini targ‘ib etuvchi bu kabi kitoblar ajdodlar merosini asrab-avaylash, milliy o‘zlikni mustahkamlash va kelajak avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘lida muhim qo‘llanmalardan biri, deb baholashimiz mumkin.

Muyassar IBROHIMOVA

XOTIRA



Omon MATJON: “Avvalgilarga o‘xshamas...”

1986-yili “Shu’la” to‘garagida shoir Omon Matjon bilan uchrashuv o‘tkazilganida bir qancha mavzular qatori Alisher Navoiyga atab ul zoti muborak nomi bilan atalgan ko‘cha maydoniga o‘rnatilgan haykal haqida mulohazalarini aytib o‘tgandi:

“Talabalik paytimizda Navoiy tavalludiga baxshida tantanaga olib borishganida, kursdoshlarimiz orasida guldasta qo‘yish mening chekimga tushgandi. Men kursimiz nomidan bir quchoq oq va qizil chinnigullarni bobomiz oyog‘i ostiga qo‘yishga harakat qildim. Haykal shohsupasi poyi hukumat va boshqa muassasalarning gulchambari bilan band bo‘lganidan, oyoq uchida turgancha, qo‘llarimni cho‘zib ham Hazratning poyiga yetolmay, guldastani shohsupaga otdim, ammo parishon gullarimning ayrimlari yetib bordi, ayrimlari yerga qaytib tushdi.

Yigirma yillik gapni nimaga eslab qoldim? Hozir sizlar bilan uchrashuvga kelayotib, o‘sha holat esimga tushib, shohsupaga bo‘ylashsam, kiftim barobar pasayib ketibdi. Yigirma yil ichida mening bo‘yim o‘sdimi yo shohsupa yerga cho‘kdimi? Bu orada balki bir quloch pasaytirishgan ham chiqar. Tegishli idoralarda haykallarning, shohsupalarining bo‘yini o‘lchab yuradigan arboblar bo‘lardi. O‘shalar “Nimaga falon shoir og‘amizning haykali Navoiynikidan besh qarich past, xato tuzatilsin!” degan bo‘lishi ham mumkinmi?! Mumkinchiligi bor...”

Uchrashuvdan keyin atayin shu tarafdan yurib, haqiqatan, shohsupa ancha past ekaniga guvoh bo‘ldik, balki yo‘qsilparast arboblar dahoni xalqqa yaqinlashtirmoqchi bo‘lishgandir...

Bu orada besh-o‘n yil o‘tib, Mustaqillikdan keyin shohsupa sezilarli darajada o‘sdi – Navoiy poyi qo‘l yetmas yuksaklikka ko‘tarildi.

Olloyor BEGALIYEV



“Kirma savdo bahriga olamdan istab sudkim,
Siym naqdi tushsa, lekin umr naqdi siyg‘olur.
Alisher NAVOIY

TARMOQLARDA NIMA GAP?

“KAITIAKITANGA”

*Tilshunoslar dunyodagi eng chiroyli so‘zni tanladilar.
Uni bir urinishda talaffuz qila olasizmi?*



“Babbel” til o‘rganish platformasi dunyodagi eng chiroyli so‘zni topish uchun ilk bor tanlov o‘tkazdi. Mutaxassislar 75 dan ortiq tildan 223 ta ishtirokchi so‘zni to‘pladi va xalqaro hakamlar hay’ati so‘zlarning jarangi, ma’nosi, noyobligi va madaniy ahamiyatiga ko‘ra ularni baholadi. Bu haqda Germaniyaning “Bild” gazetasi xabar berdi.

G‘olib Yangi Zelandiyaning tub aholisi – maori millati tilidan olingan “kaitiakitanga” so‘zi bo‘ldi. Bu atama tabiatni himoya qilish va uni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish insonning mas’uliyatli vazifasi ekanini ifoda etadi. Shunday ajoyib ma’noli so‘z “kai-ti-a-ki-tan-ga” tarzida talaffuz qilinadi.

Ahamiyatli jihati, maori xalqining dunyoqarashiga ko‘ra, odamlar tabiatga egalik qila olmaydi, balki ular tabiatning tarkibiy bir qismi va asrovchisidir.

Maorilar Sharqiy Polineziyadan Yangi Zelandiya orollariga 1250–1300-yillarda kelgan ko‘chmanchilarning avlodlaridir. Ularning tili polineziya guruhiga mansub bo‘lib, 1987-yildan beri mamlakatning rasmiy tili hisoblanadi.

Qisqa ro‘yxatga yana qaysi so‘zlar kiritilgan?

G‘oliblikka da’vogar kalomlar orasida quyidagi so‘zlar ham bor edi:

hayotdagi maqsad tuyg‘usini ifoda etadigan yaponcha “ikigay”;

kimnidir yoki nimanidir chuqur sog‘inishni ifodalaydigan portugalcha “saudade”;

yo‘qotilgan yoki hech qachon mavjud bo‘lmagan uy qayg‘usiga oid uelscha “xiraet”.

Tanlovga, shuningdek, butun jumlada ifoda etish yoki tarjima qilish qiyin bo‘lgan so‘zlar ham kiritildi. Masalan, yagan tilidagi “mamixlapinatapai” – har biri ikkinchisining o‘zi tomon ilk qadamni qo‘yishini xohlaydigan ikki kishining nigohlarini tasvirlaydi. Fincha “poronkusema” so‘zi bug‘uning ma’lum vaqt oralig‘ida bosib o‘tishi mumkin bo‘lgan masofani anglatadi.

G‘olib qanday tanlandi?

Tashkilotchilar Reddit, TikTok va onlayn til hamjamiyatlaridagi munozaralarni ko‘rib chiqdilar. Olingan qisqa ro‘yxat tilshunoslar, yozuvchilar va madaniyatshunoslardan iborat nufuzli hakamlar hay’atiga taqdim etildi. Ular so‘zlarning ohangi bilan birga, ularning ma’nosiga, noyobligi va xalq madaniyati bilan bog‘liqligiga alohida ahamiyat berdilar.

Darvoqe...

“Har kimniki o‘ziga, oy ko‘rinar ko‘ziga”, degan gap bor. Siz bu tanlovga ona tilimizdan qaysi so‘zni taqdim etgan bo‘lardingiz, muhtaram gazetxon? Marhamat, yozib yuboring – fikringiz biz uchun qiziq.

**“Smartpress.by” ma’lumoti asosida
I.BO‘RIBOYEV tayyorladi.**

KUZATUV



O‘tgan barcha fozillar, olim-u ulamolardan bir o‘git meros: kam ye, kam de, kam uxla. Ammo ana shu “kam”ning ham me’yori bor, xususan, uyqu borasida. Tun borliqning oromi, jami jonzotlarning quvvatini tiklashi, ertangi kunga hozir bo‘lishi uchun yaratilgan. Ammo uzun tun bo‘yi, qop-qorong‘ida ham millionlab odamlarning qo‘lidagi kichik ekranlar yonib turadi. Kimdir navbatdagi qisqa videoni tomosha qilmoqda, kimdir ijtimoiy tarmoqda bahslashmoqda, yana birov nimadir xabarlarni axtarayotir.

Bugun insoniyat har qachongidan ko‘ra ko‘proq charchagan, asabiy zo‘riqqan, hordiq chiqarishga, mehrga muhtoj. U har qachongidan kamroq uxlayotgan, kam mehr ulashayotgan davrini yashayapti. Bu hol qachongacha davom etadi? Qachondir telefon odamzotning joniga tegarmikin?

Uyqu – insonga berilgan buyuk ne’matlardan biri. Ovqat tanani to‘yintirsa, uyqu miya va ruhni oziqlantiradi. Kayfiyatni yaxshilaydi, tana quvvatini, xotirani yangilaydi. Inson bir necha kun ovqatsiz yashashi mumkin, ammo uzoq vaqt uyqudan mahrum bo‘lsa, butun organizm izdan chiqadi, hatto miya o‘zini tiklay olmasligi mumkin. Uyqusizlik hayot sifatini, fikrlash qobiliyati va hatto umr davomiyligini ham asta-sekin qisqartiradi. Olimlar uyqusizlikni oddiy odat, jismning ko‘nikmasi sifatida emas, balki insoniyat xotirasining kuchsizlanishi sababchisi baholab, yangi asrning “sokin epidemiyasi” deb atashmoqda. Bu shunday keng tarqalgan kasallikki, uning og‘rig‘i sezilmaydi. Bu kasallik bolalarga kattalardan yuqmoqda.

Bugun uyqusizlik odatiy hol bo‘lib qoldi. Odamlar uni muammo deb hisoblamay ham qo‘yishdi. “To‘rt-besh soat uxlasam yetarli”, “Hali yoshman, kuchim bor”, “Dam olishga vaqt yo‘q, ishim ko‘p” kabi bahonalar bilan o‘zimizni ovutyapmiz.

Inson uchun har kecha o‘rtacha yetti-sakkiz soatlik sifatli uyqu zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarda uyqu soatlari undan ham ko‘p bo‘lishi lozim. Hatto organizmning immun tizimi ham asosan tungi uyqu paytida faollashadi. Qizig‘i shundaki, uyqusizlik faqat ko‘z ostidagi qora halqalar yoki mudroq bilan cheklanmaydi. U insonning butun jismiga, eng yomoni, bor hayotiga ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘plab mamlakatlarda uyquga to‘ymagan haydovchilarning xavfi mast haydovchilar xavfi bilan tenglashtirilishi bejiz emas.

Yana bir qiziq haqiqat bor: inson uxlayotganida miya dam olmaydi. Aksincha, u juda katta ishni bajaradi. Neyrobiologlar bu jarayonni shahar ko‘chalarini tozalashga qiyoslashadi. Kun davomida miya hujayralari faol ishlaganda turli chiqindilar hosil bo‘ladi. Uyqu paytida esa miyaning o‘ziga xos “tozalash tizimi” ishga tushib, bu chiqindilarni chiqarib yuboradi. Shu bois, muntazam uyqusizlik kelajakda xotira bilan bog‘liq kasalliklar xavfini oshirishi mumkinligi haqida ilmiy qarashlar mavjud.

Eng achinarlisi, oila a’zolari bir xonada o‘tirgan bo‘lsa ham, har kim o‘z ekrani bilan band. Suhbatlar yo‘q, kitoblar javonda chang bosgan, tabiatni kuzatish kamaygan, fikrlash, fikrlashish yodga kelmay qo‘ygan.

Kechqurungi kitob mutolaasi insonni tabiiy ravishda tinchlantiradi. Kitob o‘qiyotgan miya bir voqeadan ikkinchisiga sakramaydi, u obrazlarni tasavvur qiladi, mulohaza yuritadi, qahramonlar bilan birga yashaydi. Bu jarayon asab tizimini tinchlantirib, uyqu uchun qulay muhit yaratadi. Shuning uchun ham ko‘plab mutaxassislar uxlashdan yarim soat oldin telefon emas, kitob tanlashni tavsiya etadi.

Tabiat eng yaxshi tabiblardan biri. Ertalabki quyosh nurida sayr qilish, daraxtlar shivirini tinglash, osmonga qarash, qushlarni kuzatish asab tizimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, tungi uyquni me’yorlashtirishi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan. Buning uchun tog‘larga chiqish shart emas. Hatto bog‘dagi o‘n besh-yigirma daqiqalik sayr ham kayfiyatni ko‘tarishi, stress gormonlarini kamaytirishi mumkin. Tabiat insonning vaqtiga baraka hadya etadi, ekran esa vaqtni kishi bilmas o‘tkazib yuboradi.

Uyquni yaxshilash uchun oddiy qoidalar bor, ulardan eng birinchisi: uxlashdan bir soat avval ekranlardan voz kechishdir. Uyquni bekorga sarflangan vaqt deb emas, ertangi kun uchun eng muhim sarmoya deb bilish lozim. Chunki yaxshi uxlagan inson faqat sog‘lom bo‘libgina qolmaydi – u yaxshiroq o‘ylaydi, ko‘proq anglaydi, chuqurroq his qiladi va hayotning eng go‘zal lahzalarini ham ekran orqali emas, o‘z ko‘zi bilan ko‘ra oladi. Tiniqib uyg‘ongan odamlar kechiruvchan, mulohazali, kamtar bo‘lishi aniqlangan.

Avvallari g‘aflat deganda uyquda bo‘lib, biror hodisadan bexabar qolish aytilardi. Bugun esa uyqusizlik insonning salomatlik, kitobxonlik, tafakkur qilish ne’matlaridan g‘aflatda qolib, bebahra bo‘lishini anglatmoqda. Chindan ham, XXI asrning haqiqiy g‘aflati shunda: biz uyquni sonsiz axborotlarga almashyapmiz. Holbuki, yaxshi uyquning o‘zi ham mazmunli hayotning eng muhim shartlaridan biridir.

Guli IKROM qizi

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 478
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 889
Lotin yozuvida – 11 589
Media kuzatuvchilar – 91 277
Buyurtma: G – 740
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy

Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI